O`ZBEKISTON TALABASI

/2026.6 №6 /37/



Osiyoning ilm-fan va innovatsiyalar **markazi**

“Lahzani tutib qol, yashab o‘t lahzani...”

3030-3656

anons

"Bolajon xalq" haqida o'ylar

O‘z bolasini o‘z qo‘llari bilan cho‘ktirib, bo‘g‘ib, qiynab, urib o‘ldiradigan maxluqsifat odamlar bilan bitta jamiyatda yashayotganingizni hech his qilib ko‘rganmisiz? Har gal yangiliklarda “bola vafot etdi” deb eshitsam, shu xalq mansubi sifatida uyalib ketaman. Nimaga, qayerda xato qilyapmiz?

Olis qit'adagi tafakkur

Ba’zan inson hayotida shunday qarorlar bo‘ladiki, ular uning kelajagini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Men uchun Avstraliyaga kelish ana shunday qarorlardan biri bo‘ldi. O‘zbekistonda ulg‘aygan, ekologiya va jamiyat masalalariga qiziqqan yosh sifatida men doimo dunyoni kengroq ko‘rishni, turli madaniyatlarni o‘rganishni va xalqaro tajriba orttirishni xohlaganman.

"Siyosatchi bo'lish uchun "vaznim" yetmadi..."

Bitiruv marosimidagi nutqlar, chamasi, universitetni bitirayotgan talabalarni dunyoga qo‘yib yuborishdan oldin ularni yaxshilab “tinchlantirib olish” kerak, degan ishonch tufayli o‘ylab topilgan.

Noma'lum ayol

O‘zga bir tilni o‘zlashtirish oson emas. Koreyaga kelganimdan beri urinaman, televizordagi turli dasturlarni ko‘rishga harakat qilaman. Bir gal to‘qqiz bolani tug‘ib katta qilgach, barchasini mustaqil hayotga qo‘yib yuborgan ona haqida ko‘rsatuv bo‘ldi.

"Farz"dan qarzmiz

Bir tomondan milliy kino rivojlanishi, sifatli filmlar ko‘payishini istaymiz. Ikkinchi tomondan esa kinoteatrlarga endigina chiqqan yoki tomoshabinga yetib borishga ulgurmagan asarlarning ijtimoiy tarmoqlarda nazoratsiz tarqatilishiga befarq qaraymiz.

Bosh axborot hamkorimiz
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

O'ZBEKISTON TALABASI
Ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy-uslubiy metodik jurnal

Jamoat kengashi
Isajon SULTON
Alisher SHODMONOV
Ravshan ERMATOV
Olim TOSHBOYEV
Dilorom KARIMOVA
Nodir JONUZOQ
Nazokat AZIM
Abduvali XOLIQOV
Kamoliddin O'RINBOYEV
Gulmira MUSAJONOVA
Jenisbek PIYAZOV
Ayub SHAHOBIDDINOV
Iqbol QO'SHSHAYEVA
Bahrom IRZAYEV

Muassis
"INTEGRATION CENTR UMID" MCHJ

Direktor
Chorshanbi XOLMATOV

Bosh muharrir
Sirojiddin IBROHIM

Navbatchi muharrirlar:
Otash YASHIN
Aziz ABDUMALIK

Jurnal tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi

Sahifalovchi-dizayner
Rahmatjon YUNUSOV

Bir yilda 10 son o'zbek, qisman ingliz va rus tillarida chop etiladi. 2022-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 1590-raqam bilan ro'yxatga olingan. Obuna indeksi: 1393. Adadi: 2000 nusxa. Jurnalda e'lon qilingan materiallardagi dalil va raqamlarga mualliflar javobgar. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin. Tahririyat manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani Novza ko'chasi 14-uy. "Invest Book" bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Uchtepa tumani Foziltepa ko'chasi 12-B uy. 30.06.2026-yilda chop etishga ruxsat berildi. Jurnal obunasi, sotuvi hamda reklama xizmati yuzasidan +99891 077 75 75 raqami orqali ma'lumot olishingiz mumkin. Maqolalar quyidagi manzil orqali qabul qilinadi: @uzb_talabasi











Mundarija

YALOVBARDORLAR HAMROHI _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ ⇲02

OTFIV: IYUN SARHISOBI _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ ⇲03

“BOLAJON XALQ” HAQIDA O‘YLAR _ _ _ _ _ _ _ _ ⇲15

KUTUBXONALARNI “JONLANTIRISH” YO‘LI _ _ _ _ _ ⇲20

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI: INNOVATSION TAJRIBALAR AMALIYOTDA _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ ⇲23

SUN’IY GO‘ZALLIK QURBONLARI _ _ _ _ _ _ _ _ ⇲28

OLIS QIT’ADAGI O‘YLAR _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ ⇲34

“SHUM BOLA”: HAZIL TAGIDAGI ZIL _ _ _ _ _ _ _ ⇲39

“LAHZANI TUTIB QOL, YASHAB O‘T LAHZANI...” _ _ _ _ ⇲42

NOMA’LUM AYOL _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ ⇲46

BITIRUVCHIDAN TASHAKKURNOMA YOXUD AMIR OLIMXON AVLODI EMASMAN _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ ⇲50

“SIYOSATCHI BO‘LISH UCHUN “VAZNIM” YETMADI...” _ _ ⇲56

“FARZ”DAN QARZMIZ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ ⇲60

SINGAPUR MILLIY UNIVERSITETI: OSIYONING ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR MARKAZI _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ ⇲64

ASSASINLAR ASLIDA KIM BO‘LGAN? _ _ _ _ _ _ _ ⇲68



YALOVBARDORLAR HAMROHI

Yoshlik bu – olov, yoshlik bu – havo. Yoshlikning tuprog‘i yengil. Yoshlik nasihatni tan olmaydi. Chekkagirlik unga begona. U bamisoli uloqchi ot: ko‘pkarida zot ayirish uning muddaosi. Yoshlik bu – bunyodkorlik va vayronkorlik mujassam qudrat. Yoshlikning egizi – taraqqiyot va yangilanish. Taraqqiyot va yangilanish esa saratonning seliday gap. Behalovat, besabr qavmning ma’naviy ehtiyojini qondirish, unga hamdam-u ulfat bo‘lish sharaf, aslida. Barmoqlari bilan dunyo kezayotgan, barmoqlar kabi betakror yoshlar orasida o‘qirmanlar ko‘pligi quvonarli, albatta.

“O‘zbekiston talabasi” jurnali yangilanish yalovbardorlarining hamrohiga aylandi. Jurnalning har bir sonida bugunning nafasi ufurib turadi. Zukko o‘qirman O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy-ruhiy qiyofasini, shijoatini, salohiyati va qudratini his etish bilan bir qatorda, ularning istiqboliga tashxis ham qo‘ya oladi. “O‘zbekiston talabasi” bahs-munozara, ijod, kashfiyot maydoni sifatida nom qozondi. Jurnalni ommabop qilgan omillar ko‘p: zamonaviylik, rang-baranglik, ochiqlik, tanqidiy ruh ustuvorligi. Men bu omillar qatorida maqola va suhbatlarning sarlavhalarini alohida aytib o‘tmoqchiman. Sarlavhalarning o‘zi bir san’at.

Qadrli uka-singillar, talabalik muammolar girdobi ekan, deya siqilyapsizmi? O‘zingizni kashf etolmay ovoramisiz? Hech boki yo‘q. Hurfikr sohiblari, dunyoni o‘zgartirishga ahd qilgan olovqalb yoshlar minbariga yaqinroq keling! “O‘zbekiston talabasi” bu – O‘zbekiston yoshlarining ovozi!



Olim TOSHBOYEV
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

OTFIV: IYUN SARHISOBI

1 Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida “Oliy va kasbiy ta’lim hamda ilm-fan sohasida korrupsiyaning oldini olish: ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik nazorati” mavzusida jamoatchilik eshituvi va ochiq muloqot o‘tkazildi.

Tadbirda vazirlik tizimidagi mas’ul rahbar va mutaxassislar, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Muloqot davomida so‘nggi yillarda tizimda amalga oshirilgan islohotlar, xususan, oliy ta’limga qabul, kontrakt va stipendiya to‘lovlari, talabalarni turar joylarga joylashtirish kabi jarayonlarni raqamlashtirish natijalari, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar, shuningdek, davlat buyurtmasi asosida amalga oshirilayotgan ijtimoiy loyihalar yuzasidan ma’lumotlar taqdim etildi.

Korrupsiyaga qarshi huquqiy madaniyatni yuksaltirish maqsadida har yili minglab pedagoglar hamda yuz minglab talaba-yoshlar maxsus o‘quv kurslariga jalb etilmoqda. Oliy ta’lim dasturlariga korrupsiyaning salbiy oqibatlari va unga qarshi kurashish mexanizmlariga oid mavzular ham kiritilgan.

Tadbir davomida jamoatchilik vakillari tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar asosida ta’lim hamda ilm-fan sohasida korrupsiyaviy xavflarni yanada kamaytirish, ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirishga qaratilgan amaliy tashabbuslar muhokama qilindi.





2 Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida o‘tkazilgan “Do‘stlik festivali” mamlakatimizning turli hududlaridan tashrif buyurgan talaba-yoshlar hamda oliy ta’lim muassasalari vakillarini yagona maqsad atrofida birlashtirgan yirik ijtimoiy-madaniy tadbirga aylandi.

Festival doirasida Toshkent shahri va respublikaning qator hududlaridan kelgan delegatsiyalar tantanali kutib olinib, Qoraqalpog‘istonning boy madaniyati, milliy qadriyatlari va mehmondo‘stlik an’analari namoyish etildi. Festival dasturidan sport musobaqalari, zakovat bellashuvlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda tarixiy-madaniy maskanlarga sayohatlar o‘rin oldi. Xususan, Mizdaqxon tarixiy-arxeologik majmuasi, I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san’at muzeyi hamda Mo‘ynoq tumaniga uyushtirilgan safarlar ishtirokchilarda yurtimizning boy tarixi va madaniy merosiga nisbatan yanada katta qiziqish uyg‘otdi. Mo‘ynoq safari davomida Qo‘ng‘irot tumanidagi 43-sonli umumta’lim maktabida “Bir kitob — ming do‘st” shiori ostida ma’rifiy aksiya doirasida kitoblar sovg‘a qilindi.

3 Buxoro shahrida o‘z faoliyatini boshlagan zamonaviy “Poykent Bukhara old city” mehmonxonasida Buxoro davlat texnika universiteti turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishining 87 nafar talabasi dual ta’lim asosida ish faoliyatini boshladi.

Talabalar o‘qish bilan bir qatorda amaliy tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo‘lib, ular 3 mahal bepul ovqat, bepul yotoqxona hamda oyiga 2–3 million so‘m miqdoridagi maosh bilan ta’minlanmoqda.

Ta’kidlash joizki, Buxoro davlat texnika universiteti dual ta’lim tizimini joriy etish va rivojlantirish borasida respublikamizdagi eng ilg‘or oliy ta’lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Universitet tomonidan ishlab chiqarish korxonalari va xizmat ko‘rsatish sohasidagi tashkilotlar bilan yo‘lga qo‘yilgan samarali hamkorlik natijasida talabalar o‘qish davridayoq ish tajribasiga ega bo‘lib, munosib daromad topish imkoniyatidan foydalanmoqda.





4 Joriy yilning 4-iyun kuni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari O‘ktam Salomov Xitoy Xalq Respublikasining nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri — City University of Hong Kong delegatsiyasi bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda ikki mamlakat o‘rtasidagi ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish hamda istiqbolli tashabbuslarni ro‘yobga chiqarish masalalari muhokama qilindi.

Muloqot avvalida O‘ktam Salomov mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim va ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarining izchil rivojlanib borayotgani haqida to‘xtaldi. Ta’kidlanganidek, bugungi kunda Xitoy O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkorlaridan biri hamda muhim investitsiya manbai hisoblanadi. Shuningdek, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ilgari surilgan “U10” loyihasi doirasida jahonning yetakchi universitetlari bilan hamkorlik qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

5 Prezident Farmoni bilan tashkil etilgan Yoshlarning innovatsion tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ofisi o‘z faoliyatini amaliy bosqichga o‘tkazgan holda navbatdagi tashrifni amalga oshirdi. Ofis direktori Akbarxon Sobirxonov rahbarligida respublikamizdagi 10 dan ortiq oliy ta’lim muassasalari rektorlari “O‘zmetkombinat” AJda bo‘lib, sanoat va ta’lim integratsiyasini rivojlantirishga qaratilgan uchrashuvda ishtirok etdilar.

Uchrashuvda metallurgiya sohasi uchun zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, talabalarni amaliy ishlab chiqarish jarayonlariga keng jalb etish, qo‘shma ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish hamda ilmiy va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar ilgari surildi.





6 Hindistonning Tibbiyot fanlari milliy imtihonlar kengashi (NBEMS) tomonidan Hindistonning tibbiyot sohasidagi eng muhim litsenziyalash imtihonlaridan biri hisoblangan Foreign Medical Graduate Examination (FMGE)ning 2025-yil natijalari e'lon qilindi. Unga ko'ra, tibbiyot sohasi bo'yicha chet ellik talabalarni tayyorlaydigan davlatlar orasida O'zbekiston 40,37 foizlik muvaffaqiyat ko'rsatkichi bilan dunyoda to'rtinchi, MDH va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari o'rtasida birinchi o'rinni egalladi. Hindiston fuqarolari tibbiy diplom olgan xorijiy mamlakatlar orasida O'zbekiston yetakchilikni qo'lga kiritdi.

O'zbekiston nafaqat imtihonni muvaffaqiyatli topshirish foizi, balki chet ellik talabalar soni bo'yicha ham yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etmoqda. Bu raqamlar mamlakatimiz tibbiyot ta'limi tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning amaliy samarasini ko'rsatuvchi muhim indikator hisoblanadi.

FMGE bu Hindiston fuqarolari xorijiy davlatlarda tibbiyot bo'yicha oliy ma'lumot olgach, o'z yurtida shifokor sifatida ishlash huquqini qo'lga kiritish uchun topshiradigan davlat imtihonidir.

Masalan, Hindistonlik talaba O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston, Xitoy yoki boshqa davlatda tibbiyot sohasida tahsil olsa, diplomni olganidan keyin Hindistonga qaytib ishlash uchun mazkur imtihondan o'tishi shart. Imtihondan o'ta olmagan bitiruvchi shifokorlik faoliyati bilan shug'ullana olmaydi.

Shu sababli FMGE natijalari muayyan universitet yoki mamlakatdagi tibbiy ta'lim sifati haqida muhim tasavvur beradi. Qaysi mamlakat bitiruvchilari imtihondan ko'proq o'tayotgan bo'lsa, o'sha yerdagi ta'lim sifati ham yuqori deb baholanadi.

Hozirgi kunda minglab hindistonlik talabalar tibbiyot sohasida ta'lim olish uchun xorijiy davlatlarni tanlamoqda. Ular orasida O'zbekiston ham bor.

O'zbekiston tibbiyot oliygohlari nafaqat milliy, balki xalqaro mehnat bozori talablariga ham javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda.



7 6-iyun kuni Toshkent shahrida Amerika texnologiyalar universitetining (AUT) ilk magistratura bitiruvchilari uchun tantanali diplom topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov, AQSHning O‘zbekistondagi elchisi o‘rinbosari Hezer Berns, universitet rahbariyati, professor-o‘qituvchilar, ota-onalar hamda xalqaro hamkor tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Marosimda so‘zga chiqqan vazir Qo‘ng‘irotboy Sharipov bitiruvchilarni ushbu qutlug‘ kun bilan samimiy tabriklab, Amerika Texnologiyalar universiteti qisqa vaqt ichida mamlakatning eng istiqbolli oliy ta’lim tashkilotlaridan biriga aylanganini ta’kidladi.



8 O‘zbekiston jamoasi Huawei ICT Competition 2026 Global Final musobaqasida jahon chempioniga aylandi.

Xitoyning Shenzhen shahrida bo‘lib o‘tgan Huawei ICT Competition 2026 Global Final musobaqasida O‘zbekiston terma jamoasi yuqori natijani qayd etdi.

Network Track (Tarmoq texnologiyalari) yo‘nalishida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalaridan iborat O‘zbekiston jamoasi barcha raqiblarini ortda qoldirib, 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi va jahon chempioni bo‘ldi.

Ushbu natija Huawei ICT Competition musobaqasi tarixida O‘zbekiston uchun ilk chempionlik sifatida qayd etildi.

9 Toshkent shahridagi Olimpiya shaharchasida “Yangi O‘zbekiston talabalari olimpiadasi” sport musobaqalarining tantanali yopilish marosimi hamda g‘olib va sovrindorlarni taqdirlash tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Musobaqalarning yakuniy natijalariga ko‘ra, barcha toifadagi oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi umumjamoa hisobida Farg‘ona davlat universiteti 7 ta oltin, 6 ta kumush va 5 ta bronza, jami 18 ta medal bilan mutlaq g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Ikkinchi o‘rinni Urganch davlat universiteti (7 ta oltin, 3 ta kumush va 3 ta bronza medal), uchinchi o‘rinni esa Qoraqalpoq davlat universiteti (4 ta oltin va 3 ta kumush medal) egalladi.

Sport faoliyati va jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lmagan oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “TDIU” sport klubi 2 ta oltin va 1 ta kumush medal bilan birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Ikkinchi o‘rin O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining “O‘zDJTU” sport klubiga, uchinchi o‘rin esa Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining “JIDU” sport klubiga nasib etdi.

Shuningdek, nodavlat va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasida ham bir qator nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblar aniqlandi. Xususan, “Eng ko‘p medal jamg‘argan oliygoh” nominatsiyasi Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutiga topshirildi. “Eng ko‘p sport turidan ishtirok etgan oliygoh” nominatsiyasiga “Alfraganus University”, “Eng katta delegatsiya bilan ishtirok etgan oliygoh” nominatsiyasiga esa Oriental universiteti sazovor bo‘ldi.





10 Myunxen texnika universiteti bilan strategik hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

10-iyun kuni Germaniya Federativ Respublikasiga tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining ta’limni isloh qilish bo‘yicha o‘rinbosari Ilxom Siradjev boshchiligidagi delegatsiya QS World University Rankings reytingida 22-o‘rinni egallagan Myunxen texnika universiteti (TUM) Prezidenti professor Thomas F. Hofmann boshchiligidagi universitet rahbariyati bilan muzokaralar o‘tkazdi.

Uchrashuv natijalariga ko‘ra quyidagi muhim kelishuvlarga erishildi:

- kuzgi semestrdan boshlab “Yangi O‘zbekiston” universiteti talabalariga TUMda bir semestr tahsil olish imkoniyatini yaratish;
- TUM bilan hamkorlikda aerokosmik muhandislik bo‘yicha yangi ta’lim dasturini ishga tushirish;
- O‘zbekiston universitetlarida startap ekotizimini shakllantirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va sanoat bilan kuchli aloqalarni yo‘lga qo‘yishda TUM tajribasidan foydalanish;
- muhandislik, IT, AI, agrotexnologiyalar, tibbiyot texnologiyalari va suv resurslari bo‘yicha qo‘shma ta’lim hamda ilmiy loyihalarni rivojlantirish;
- TUMni O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini transformatsiya qilishda strategik akademik hamkor sifatida jalb etish.

Ushbu uchrashuv O‘zbekiston universitetlarini yangi bosqichga olib chiqish, ularni sanoat, ilm-fan va innovatsiyalar bilan bog‘langan kuchli ekotizimlarga aylantirish hamda mamlakatimizda global raqobatbardosh muhandislar va texnologik liderlar avlodini tayyorlash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

11 Orolning qurigan tubidagi o‘simliklarning yashovchanligini oshiruvchi biopreparatlar yaratildi.

O‘zMU Jizzax filiali professori Sayyora Murodova rahbarligida Orol dengizining qurigan tubidagi o‘ta sho‘r tuproqlarda o‘simliklar hayotchanligini oshirishga qaratilgan loyiha amalga oshirildi.

Loyihada professor-o‘qituvchilar bilan bir qatorda iqtidorli talabalar ham faol ishtirok etdi.

Tadqiqot davomida hududning sho‘r tuproqlaridan 1000 dan ortiq mikroorganizm namunalari ajratib olinib, eng samarali 100 tasi asosida maxsus mikrobiologik kolleksiya yaratildi.

Ular negizida ishlab chiqilgan “Zamin-M” va “Rizoto‘plam” biopreparatlari Orolbo‘yi sharoitida o‘simlik urug‘larining unuvchanligi va chidamliligini oshirishda yuqori samara ko‘rsatmoqda.

Mazkur ilmiy ishlanma Orolbo‘yida ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilish bilan birga, talabalarning ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishi va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun ham muhim maydon vazifasini o‘tamoqda.





12 O‘zbek–Fransuz universiteti Vasiylik kengashining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

18-iyun kuni O‘zbek–Fransuz universiteti Vasiylik kengashining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri, O‘zbek–Fransuz universiteti Vasiylik kengashi raisi Qo‘ng‘irotboy Sharipov olib bordi. Yig‘ilishda Fransiyaning O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Ualid Fuk, Fransiya va O‘zbekistonning hamkor oliy ta’lim muassasalari rahbarlari hamda kengash a’zolari ishtirok etdi.

Yig‘ilish kun tartibidan O‘zbek–Fransuz universiteti Vasiylik kengashi nizomini tasdiqlash, universitetning 2026-yilgi ish rejasi va xarajatlar smetasini ko‘rib chiqish, 2026/2027 o‘quv yili uchun magistratura bosqichiga qabul tartibini belgilash hamda Fransiyaning Puatye universiteti bilan ta’lim xizmatlari bo‘yicha hamkorlik masalalari o‘rin oldi.



13 Samarqandda sayyor qabul: fuqarolar murojaatlari tinglandi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari Sardor Radjabov Samarqand viloyatida sayyor qabul o'tkazib, fuqarolar, professor-o'qituvchilar, talabalar hamda ta'lim tizimi xodimlari bilan ochiq muloqot qildi.

Qabul davomida oliy ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kontrakt to'lovlari, talabalar o'qishini ko'chirish, oliy ta'limga qabul jarayonlari, ilmiy va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hamda boshqa dolzarb masalalar yuzasidan murojaatlar qabul qilindi.

Har bir murojaat mutaxassislar ishtirokida atroflicha ko'rib chiqilib, fuqarolarga huquqiy va amaliy tushuntirishlar berildi. Shuningdek, murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni hal etish yuzasidan tegishli mas'ullarga aniq topshiriqlar berilib, ijrosi nazoratga olindi.

HEMIS TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN BARCHA O‘ZGARISHLAR VA YANGI FUNKSIYALAR BILAN TANISHING!

14 HEMIS tizimida amalga oshirilgan barcha o‘zgarishlar va yangi funksiyalar bilan tanishing!

Tizimning navbatdagi yangilanishida quyidagi funksiyalar, integratsiyalar va texnik tuzatishlar foydalanishga topshirildi:



1. Bitiruv ishi himoyasi bo‘yicha DAK bayonnomasini rasmiylashtirish:

Tizimga talabalarning bitiruv ishlarini himoya qilganliklari bo‘yicha DAK(yakuniy davlat attestatsiyasi) qarori bayonnomasini shakllantirish funksiyasi qo‘shildi. DAK bayonnomasi “Ta’lim buyruqlari” bo‘limida rasmiylashtiriladi va imzolanadi. Bayonnomaga YADAga ruxsat berilgan talabalar qo‘shilib, ularga DAK xulosasi, savollar va baholar kiritiladi. DAK raisi va kotibi tomonidan imzolangach, “Bajarish” tugmasi orqali baholar avtomatik ravishda akademik yozuvga (transkriptga) ko‘chiriladi.

2. Talabalarning yotoqxonadan foydalanish to‘g‘risidagi shartnomalari:

Talabalar turar joyida (TTJ) yashovchi talabalarning shartnomalari va to‘lovlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kuzatish imkoniyati yaratildi. Ushbu ma’lumotlar mas’ullar uchun “Tashqi xizmatlar/TTJ shartnomalari” menyusida, talabalar uchun esa o‘z profillaridagi “Moliyaviy to‘lov/TTJ shartnomalari” sahifasida ko‘rsatiladi.

3. Talabalarning fanlarni qayta o‘qishi to‘g‘risidagi shartnomalari:

Fanlarni qayta o‘qish yoki qayta topshirish bo‘yicha shartnomalar va to‘lovlar monitoringi yo‘lga qo‘yildi. Mas’ullar “Tashqi xizmatlar/kredit shartnomalari” menyusi orqali, talabalar esa o‘z profillarining “Moliyaviy to‘lov/kredit shartnomalari (yoki qayta o‘qish)” sahifasi orqali shartnoma, to‘lov va qarzdorlik ma’lumotlarini ko‘rishlari mumkin.

4. Talabalarning ijtimoiy faollik ballarini kuzatish:

Mas’ul rahbarlar (Rahbariyat rolida) talabalarning ijtimoiy faollik bo‘yicha to‘plagan ballarini kuzatib borishlari uchun “Statistika/ijtimoiy faollik reytingi” menyusi ishga tushirildi. Sahifada tegishli mezonlarni tanlash orqali ballarni saralangan holda ko‘rish imkoniyati mavjud.

5. Talabalar familiyasi va ism-sharifini avtomatik inglizchaga o‘tkazish:

Talabalar anketasidagi ism-sharifni xalqaro ICAO standarti asosida avtomatik ravishda inglizcha alifboga o‘tkazish tizimi joriy etildi. Talabalar bazasi sahifasida pasport ma’lumotlarini tekshirish (Lupa) tugmasi bosilganda, ma’lumotlar Personallashtirish markazi bazasidan yuklanadi va tizim ism-sharifni avtomatik ravishda ICAO standarti bo‘yicha inglizchaga o‘giradi.



6. Talabalarning ijara shartnomalarini ko‘rish:
Tizim O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi axborot tizimi bilan integratsiya qilindi. Mas’ullar “Tashqi xizmatlar/ijara shartnomalari” menyusida, talabalar esa o‘z profillarining “Moliyaviy to‘lov/ijara shartnomalari” bo‘limida shartnomalarni ko‘rishlari mumkin. “Sinx” tugmasi orqali ma’lumotlar soliq bazasi bilan yangilab boriladi.

7. Diplomlarda talaba ism-sharifini ingliz tilida shakllantirish:
Xalqaro ICAO hujjatlari talablariga mos ravishda kirill va lotin alifbosidagi belgilarni ingliz alifbosiga translyatsiya (transliteratsiya) qilish funksionali yaratildi. Tizimda to‘rt xil yo‘nalishda (o‘zbekcha lotin -> inglizcha, o‘zbekcha kirill -> inglizcha, o‘zbekcha lotin -> o‘zbekcha kirill, o‘zbekcha kirill -> o‘zbekcha lotin) o‘girishlarni amalga oshirish imkoniyati taqdim etildi.

8. Talabalarni familiya va ismi bo‘yicha birgalikda qidirish:
Talabalar bazasi va talabalar ro‘yxati bo‘limlarida qidiruv tizimi takomillashtirildi. Endilikda qidiruv maydoniga probel bilan ajratgan holda avval familiya, keyin ismni (yoki ularning bosh qismini) katta-kichik harflarga e’tibor bermasdan kiritib, talabalarni osongina topish mumkin.

9. Ilmiy daraja va unvonlar ma’lumotlarini avtomatik olish:
HEMIS tizimi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) axborot tizimi bilan integratsiya qilindi. Xodim anketasida pasport ma’lumotlarini yuklash yoki ilmiy ma’lumotlar qatoridagi “lupa” tugmasini bosish orqali xodimlarning ilmiy daraja va unvonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar OAK bazasidan avtomatik ravishda tizimga yuklab olinadi.

15 Avtomobilsozlik sanoati uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlanmoqda.

Jizzax politexnika instituti Avtomobilsozlik muhandislik maktabida yoshlarni kasbga o‘rgatish, ularning zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish hamda xalqaro talablarga mos mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Ijtimoiy himoya yagona reyestrida ro‘yxatda turuvchi oilalar farzandlari uchun “Zamonaviy elektromobillarga texnik xizmat ko‘rsatish” o‘quv dasturi asosida 2 oylik maxsus kurs tashkil etildi.

Shuningdek, Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi 1-son texnikumning 32 nafar o‘quvchisi uchun ham 1 oylik maxsus o‘quv kursi yo‘lga qo‘yildi. O‘quv dasturi doirasida tinglovchilarning “BYD Uzbekistan Factory” qo‘shma korxonasida dual ta’lim tizimi asosida amaliyot o‘tashi tashkil etildi.







16 “TalabaExpo — 2026”: Talabalar va ish beruvchilar uchrashadigan katta maydon!

Ko‘rgazma doirasida:

- 700 dan ortiq ish beruvchi tashkilotlar ishtirok etdi;
- 10 mingga yaqin bo‘sh ish o‘rni va amaliyot dasturlari taqdim etildi;
- Talaba va bitiruvchilar real ish beruvchilar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi;
- Tadbirkorlik, startaplar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bo‘yicha ma’lumotlar berildi.

Ko‘rgazmada sanoat, xizmat ko‘rsatish, axborot texnologiyalari, bank-moliya, ta’lim, ishlab chiqarish va boshqa istiqbolli yo‘nalishlarda faoliyat yuritayotgan yuzlab tashkilot va korxonalar o‘z vakansiyalari hamda hamkorlik imkoniyatlarini namoyish etdi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida TalabaExpo–2026 kasb ko‘rgazmasining yakuniy taqdirlash marosimi tashkil etildi. Unda vazirlik mas’ullari, O‘zmilliybank vakillari, ish beruvchilar hamda bitiruvchilar ishtirok etdi.

Tadbir avvalida yoshlar bandligini ta’minlash, bitiruvchilarni mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashtirish hamda ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar va yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so‘z yuritildi.

Marosim davomida ish beruvchilar tomonidan bitiruvchilarga ishga qabul qilinganligi to‘g‘risidagi sertifikatlar topshirildi. Oliy ta’lim tashkilotlarini imtiyozli tamomlagan yoshlarga diplomlar, biznes loyihalari moliyalashtirish uchun ma’qullangan bitiruvchilarga esa “Kelajakka qadam” dasturi doirasidagi vaucherlar taqdim etildi. Shuningdek, TalabaExpo–2026 kasb ko‘rgazmasini tashkil etish va o‘tkazishdagi faol ishtiroki uchun Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ham taqdirlandi.

TalabaExpo–2026 ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi samarali hamkorlikni mustahkamlovchi muhim platforma bo‘lib xizmat qildi. Mazkur ko‘rgazma yoshlarning kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli kirib borishi, ularning bandligini ta’minlash hamda innovatsion va tadbirkorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

17 Faol va iqtidorli yoshlar taqdirlandi.

25-iyun kuni “INNO” innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparkida “30-iyun — Yoshlar kuni” munosabati bilan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.

Unda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov, Innovatsion rivojlanish agentligi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari va professor-o‘qituvchilari, shuningdek, bir qator vazirlik va idoralar vakillari hamda talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Tadbir davomida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan “Akademik harakatchanlik” dasturi, “Bo‘lajak olim”, “Kelajak muhandislari”, “Mirzo Ulug‘bek vorislari” hamda boshqa respublika miqyosidagi ilmiy-innovatsion tanlovlar, olimpiadalar, festivallar va musobaqalarda yuqori natijalarga erishgan, innovatsion tashabbuslari bilan ajralib turgan 21 nafar iqtidorli yoshlar “Innovatsion g‘oyalar yetakchisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.



18 Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Kasbga tayyorlov Yaponiya–O‘zbekiston xalqaro markazi ochildi.

Yamagata universiteti (Yaponiya) hamkorligida tashkil etilgan Kasbga tayyorlov Yaponiya–O‘zbekiston xalqaro markazining ochilish marosimida universitet rahbariyati, O‘zbekiston Respublikasidagi Yaponiya elchixonasi vakillari, Yamagata universiteti delegatsiyasi, professor-o‘qituvchilar, Yamagata universiteti professori Tadashi Onodera, Yapon tili va kasbiy malaka test markazi direktori, Yamagata universiteti professori Dilafruz Ikramova hamda talabalar ishtirok etdi.

Dastur doirasida yapon tili kurslari, KAIZEN va YORI-I biznes ta’limi dasturlari taqdim etildi hamda tadbirkorlik ta’limiga bag‘ishlangan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Shuningdek, pilot kurslarga rasman start berildi.




OTFIV matbuot xizmati

“BOLAJON XALQ” HAQIDA O‘YLAR

O‘z bolasini o‘z qo‘llari bilan cho‘ktirib, bo‘g‘ib, qiynab, urib o‘ldiradigan maxluqsifat odamlar bilan bitta jamiyatda yashayotganingizni hech his qilib ko‘rganmisiz? Har gal yangiliklarda “bola vafot etdi” deb eshitsam, shu xalq mansubi sifatida uyalib ketaman. Nimaga, qayerda xato qilyapmiz? Tuzatsa bo‘ladimi o‘zi bu xatolarni? Boshqa mamlakatlarda ham shunday, mashina yo‘l yurar ekan, bolalar katta yo‘lga chiqib ketaverar ekan yoki boshqa sabablar bilan bolalar halok bo‘laverishadi, deb o‘ylayotgandirsiz!? Buni normal qabul qilishga sizni nima majbur qilyapti? Nima uchun bolalar o‘lishi kerak? Muttasil avariya bo‘laverib, piyodalar o‘laverganidan keyin, go‘yo marhumlarning xotirasi uchun qo‘yiladigan svetoforlar kimning dardiga davo?





Bolalar o‘limi bir emas, bir necha sabablarga bog‘liq. Buni oilaviy nizolar, ijtimoiy befarqlik, tajribasiz va nazoratsiz tibbiyot, yo‘l transport hodisalari va zo‘ravonliklar kesimida o‘rganish mumkin. Endigina tug‘ilgan go‘dak ilmsiz ota-onaga xumordan chiqish uchun bir vositaga aylanishi hech aqlga sig‘maydi. Turmush o‘rtog‘idan alamini olish uchun bolasini kaltaklaganlarning tasvirlarini ko‘rganmisiz? Oxirgi yillarda 4-5 marta shunaqa lavhalarni ko‘rdim. Videoga olinmagan, olingan-u, tarqalib ketmagan, siz-u biz eshitmagan holatlar qancha deysiz! Shu yilning aprel oyi boshlarida Farg‘onada erkak xotini bilan urushib qoladi, undan go‘yo qasd olish uchun bir yashar qizining qorniga pichoq sanchadi. Yil boshida undan ham jirkanchroq voqea bo‘lgandi. Navoiyda ota tug‘ilganiga besh oy bo‘lgan bolasini og‘ziga paypoq tiqib o‘ldirdi. Bola shifoxonaga yetkazilganda nafas yetishmovchiligi sabab vafot etgan. Bungacha o‘sha “ota” birinchi oilasidan bo‘lgan farzandlariga ham zug‘um o‘tkazib kelgan ekan. “Mahalla yettiligi” esa u bilan ko‘p marotaba profilaktik suhbatlar o‘tkazgan emish. Birgina suhbat odamni o‘zgartirarmidi axir?



O‘zini himoya qilolmaydigan bolalarga kelganda aybdor topilmaydi

Ba’zan O‘zbekistonda bola salomatligiga e’tibor shu qadar tushib ketadiki, ko‘p sonli bolalar o‘limi ham mas’ullarni sergaklantirmay qo‘yadi. Masalan, 2022-yildan boshlab shu kunga qadar “Dok-1 Maks” (Hindistonda ishlab chiqarilgan) tabletka va siropini qabul qilgan 70 ga yaqin o‘zbekistonlik bolalar vafot etdi, 20 dan ortiq bola nogiron bo‘lib qoldi. Ularning orasida dori iste’molidan so‘ng ko‘zi ko‘rmaydigan, qulog‘i eshitmaydigan, hatto o‘rnidan turolmaydigan darajaga tushib qolganlari bor. Bolalarning ota-onalariga belgilangan kompensatsiya pullari esa haligacha to‘lab berilmadi.

Shu yil 4-may kuni Urganchda 3-sinf o‘quvchisi Uchqun Aminboyevni piyodalar o‘tish joyida mashina urib ketdi va olgan og‘ir tan-jarohati sabab u vafot etdi. Marhum bolakayni 10-15-metr uzoqqa uchirib yuborgan mashinaning tezligini esa tasavvur qilavering. Qizig‘i, xuddi shu ko‘z ilg‘amas “zebra”da ungacha ham 3 kishi vafot etgan. 3-sinf o‘quvchisi Uchqunning vafotidan bir oy o‘tib, avariya yuz bergan joyda svetoforli piyodalar o‘tish yo‘li qurildi. Biroq, afsuski, kech. Birinchi holatning o‘zidayoq bunaqa tadbirlarni amalga oshirish mumkin edi axir. Hech bo‘lmaganda, ko‘zga ko‘rinarli “zebra” yoki piyodalar o‘tish yo‘lini biroz balandroq qilish mumkin-ku!



Yillarki talafotlar bo‘laverib, axiyri omma e’tiboriga tushgandan keyin muammoga chora ko‘riladigan jamiyatning kelajagidan xavotir olmay bo‘ladimi? Yuqoridagidek yana bir holat Andijonda 25-iyun kuni sodir bo‘ldi. Amir Temur shohko‘chasining “Yangi Bo‘ston” mahallasidan o‘tuvchi qismida Malibu avtomashinasi tartibga solinmagan piyodalar o‘tish yo‘lidan o‘tayotgan 3 piyodani urib yubordi. Ulardan ikki nafari – buvi va nevara o‘sha joyning o‘zida halok bo‘ldi, yana bir nevara shifoxonada davolanyapti. Voqeadan ko‘p ham o‘tmay, xuddi o‘sha joyga (o‘sha yerda yashovchilar bu yo‘lni qonli ko‘cha deyishadi) svetoforli “peshoxod” o‘rnatildi. Keyinroq ma’lum bo‘lishicha, o‘sha Malibu yana bir mashina – BMW bilan birga voqea sodir bo‘lgunicha poyga o‘ynab kelayotgan bo‘lgan. Faqat ularga yo‘lni kesib o‘tayotgan ikki bola va bir ayol “xalaqit bergan”. Yo‘l harakati xavfsizligi xodimlari marhumlarning shifoxonaga yetkazilgandan keyin vafot etganini ma’lum qilgan bo‘lsa-da, voqeaga guvoh bo‘lganlar buni inkor qiladi.

Iyun oyida Andijonda bola o‘limi bilan bog‘liq yana bir shov-shuvli voqea bo‘lib o‘tgandi. O‘zbekistonda hokimlar bo‘lmag‘ur tadbirlar bilan kimo‘zar qilayotgan bir paytda oddiy oilaning bir farzandi qurbon bo‘ldi. Namangan gullar festivali bilan Ginnes rekordlar kitobiga kirgan edi. Andijon esa “Andijon polkasi” bilan bu ro‘yxatdan joy oldi. Tadbirga minglab andijonliklar, talaba va o‘quvchilar jalb qilindi. Ulardan biri 8-sinf o‘quvchisi 15 yoshli Farrux. U tadbirdan qaytayotganda yo‘l transport hodisasi qurboniga aylandi. Yonidagi do‘stlari ham jabr ko‘rdi. Hokimlik tadbiri uchun jalb qilinganlarning xavfsizligi o‘sha rekorddan ming chandon muhimroq edi, aslida. Bu voqeada ham IIB marhumning o‘zini aybdor qilib, bolalar uylariga tadbir uchun ajratilgan avtobusda emas, o‘zboshimchalik bilan Damasda harakatlangan, dedi. Vaholanki, Damas maktab direktoriga tegishli bo‘lgan, maxsus avtobusda esa joy bo‘lmagan. Ana shunaqa, o‘zini himoya qilolmaydigan bolalarga kelganda aybdor sira topilmaydi.

Mart oyi boshida Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanidagi maktablarning birida 6-sinf o‘quvchisi o‘z joniga qasd qildi. Uni o‘qituvchisi qattiq jism bilan kaltaklab, o‘z joniga qasd qilish holatiga olib kelgani aytilgan. Umuman olganda, maktabdagi zo‘ravonliklar ham ta’limdan yiroqlashib

O`qituvchining ortida armiya, o`quvchining ortida kim?



Bola xavfsizligini faqat uni dunyoga keltirganlarga ishonish noto‘g‘ri

Himoyasiz qatlamning ko‘rgan kuni shu ekan. Katta yo‘l chetidagi yo‘lkalar ham bolalar uchun xavfsiz emas. Kimdir skuterda, yana kim elektrosamokatda g‘izillaydi. Ana shu samokatda harakatlanib, bir bolakayni urib ketay degan bir qiz Instagramdagi sahifasida “bola tuqqan odam bolasini eplab yursin, ko‘chada shunday qoldirmasin” dedi.



borayotganimiz bilan tutash. May oyi oxirlarida “o‘z kasbiy sha’nini qonuniy doirada himoya qilgan” o‘qituvchi haqida ham eshitgandirsiz. U informatika o‘qituvchisi, darsiga har doim ham kiravermagan, o‘quvchilari esa zerikib, dars vaqtida bir-biriga suv sepib sho‘xlik qilgan. Buni xonaga kirib ko‘rib qolgan muallim esa bolalar bilan gap talashadi (bolalar o‘qituvchini haqorat qildi, deyishdi) va ularni o‘lasa qilib kaltaklaydi. Avvaliga o‘qituvchiga nisbatan jinoiy ish ochildi, keyin “o‘qituvchilarning ortida himoyachilar turibdi” deb bu ishni yopib yuborishdi. Xullas, o‘sha kaltaklangan o‘quvchining biri hozir ham shifoxonada yotibdi, gapirolmaydi, mustaqil harakat qilolmaydi. O‘qituvchining ortida armiya tursa, o‘quvchining ortida kim turadi?

Taassufki, ongsizlik bu xalqni alal-oqibat xarob qiladi. Bola erkin yashashga haqli, uni qamab qo‘yib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, ota-ona xavf-xatarlardan himoya qilib turadi. Lekin bola bor yo‘laklarda qaysi aql bilan katta tezlikda harakatlanish mumkin. Umuman, piyodalar yo‘lida faqat piyodalar harakatlanishi kerak emasmi?

Bolalarga qilinadigan zug‘umlar haqida sanaydigan bo‘lsak, ularning turlari, soni shu qadar ko‘pki, taajjubga tushasan odam. Bundan uyog‘i haqida gapirishga tiling bormaydi, yuraging ham betlamaydi.

Shunday o‘ylar bilan andarmon bo‘laturib, 1-iyun – “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni”ni dunyo bolalari qanday nishonladi ekan, deb o‘ylab qoldim. Bevatan, yupun holda yashayotgan falastinlik bolalarning ham bayrami bu kun. Otasi yo akasi tomonidan zo‘rlanib kelayotgan qizlarning ham bayrami bu kun. Iyun — ota-onasi bor-budini sotib, hayotga qaytarishi uchun harakat qilayotgan dardmand bolalar ham shodlanadigan oy. Alkash ota, g‘ar ona qaqshatgan ma’yus bolajonlarning ham bayrami bu.

Muammoning yechimiga kelganda amaliyotda haqiqatan ishlaydigan biror aniq uslub ko‘rinmaydi. O‘zbek xalqida bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan gap bor. Bu eskicha fikrlash emas, aksincha, bolaning xavfsizligini faqat uni dunyoga keltirganlarga ishonish noto‘g‘ri ekanini

ko‘rsatadi. Yo‘qsa, yuqoridagidek holatlarga duch kelish hech gap emas. O‘z bolasini o‘zi tarbiyalaydi, mening nima ishim bor, degan qarash ba’zan berfarqlikka kiradi. Zo‘ravonlikni ko‘ryapsizmi, sezib qoldingizmi, darhol xabar bering. O‘zingizni bolaning o‘rniga qo‘yib ko‘rish yetarli. Bizda mahalla tizimi bor. Biroq jamiyatning bu bo‘g‘ini hujjat yig‘uvchi, tadbir-u hashar qiluvchi emas, oilalarning muammolari bilan shug‘ullanuvchi bo‘lishi zarur. Masalan, qaysi oila boshi ichkilikka berilgan, qaysining uyida har kun janjal, qaysi uydagi bolaning o‘qishlari yaxshi emas va nega doim kaltak yeb yuradi...

Shu o‘rinda bir savol: yangi oila qurayotgan, tug‘ilajak bir go‘dakni odam qilib tarbiyalamoqchi bo‘lgan ikki yosh ma’nan, tarbiyaviy jihatdan bunga tayyormi? Ularni bunga tayyorlaydigan institutlar qachon ideal ishlaydi? Mana shuni ham nazoratga olish kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, piyoda va mashina yo‘llarini odamlarga qulay qilib qaytadan tashkil qilish kerak. O‘rni kelsa, har bir kilometrda bittada svetofor qo‘yilsa, mashina minib gerdayib qolganlar bilsinki, ular ham aslida odam, piyoda.

Mashina minib gerdayib qolganlar ham odam, piyoda.

Eng muhim jihatlardan biri – rasmiy statistikada yolg‘on ishlatmaslik. Asl holat ko‘rinib tursa, xavotirlanish mumkinmi yoki yo‘q, shunga qarab tezroq chora ko‘rish zarurmi – barchasini monitoring qilib borish mumkin bo‘ladi.

Ijtimoiy psixologik yordam markazlari ishlashi kerak. Birorta xizmat ko‘rsatuvchiga qo‘ng‘iroq qilsangiz, soatlab navbat kutishingiz kerak yoki jabrni o‘zingiz ko‘rasiz. Masalan, yaqinda bir tanishim o‘zi guvoh bo‘lgan zo‘ravonlik voqeasi haqida militsiyaga qo‘ng‘iroq qiladi. Xodim bilan bog‘lanib, uning kelgunicha oradan yarim soat vaqt o‘tgan. Zo‘ravon voqea joyidan ketgach, militsiya qo‘ng‘iroq qilgan tanishimning o‘zi bilan “tushuntirish” olib borgan. Shunga o‘xshash, bola qandaydir og‘ir vaziyatga tushganida, atrofida uni qo‘llab-quvvatlovchilar bo‘lmasa, ruhiy madad olishi uchun ishonchli raqam kerak. Toki o‘zidagi vaziyatni uyalmasdan tushuntirsin. Tibbiyot haqida gap ketsa, qachondir bizda hamma shifokorlar bemorga faqat pul manbai sifatida emas, chinakam yordamga muhtoj inson sifatida qarovchi kishilar bo‘lib qolishini chin dildan istardim. Shuningdek, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan va O‘zbekistonga olib kirilayotgan dori-darmonlarning xavfsizligi bo‘yicha ham mas’uliyatli yondashuv bo‘lsa nur ustiga nur bo‘lardi.

Yer yuzida odam zoti ko‘payib borayotgan bo‘lsa-da, ayrim davlatlarda tug‘ilish soni keskin qisqarib boryapti. Iqtisodiy kuchi yuqori mamlakatlarning aholisi ko‘p bo‘lsa, bu faqat o‘sishga, rivojlanishga xizmat qiladi. Mamlakat uchun bugungi eng yaxshi investitsiya bu – bola! Qaniydi, buni hamma to‘g‘ri tushunsa, barcha resurslarni kelajak avlodning sog‘lom, xavf-xatarsiz unib-o‘sishiga safarbar qilsa!

Otash YASHIN



KUTUBXONALARNI “JONLANTIRISH” YO`LI

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bugungi davrning eng muhim masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada, tabiiyki, axborot-kutubxona markazlari faoliyati, ularning bosma va elektron kitob bazalari, o‘quvchi, kitobxon va ilmiy tadqiqotchilar uchun yaratilgan sharoitlari ham e’tibordan chetda qolmayapti. Boisi xalqimiz, xususan, yosh avlodning ong-u tafakkuri, dunyoqarashining boyishida kutubxonalarning o‘rni va ahamiyati beqiyos.



“Xiy, Xiy! Jim.

Sekinrok gaplashing, odamlar kitob ukiyapti”. Oltmish besh yoshlar atrofidagi rus amakining o‘zbek tilidagi biroz kulgili talaffuzi, ammo yoqimli bu murojaatidan suhbatdoshim ikkimiz xiyol uyalib, ovozimizni pastlatdik. Axir biz kutubxonada – odamlar dunyoni unutib, ilm-u ma’rifat daryosiga sho‘ng‘iydigan muborak maskandamiz. Kutubxona ham ziyoratgoh manzilday gap.



Afsuski, bugungi globallashuv zamonida ba’zi kutubxonalarimiz o‘z tashrif buyuruvchilari – kitobxonlar nazaridan chetda qolib, u yerdagi kitoblar o‘qilmay, chang bosib qolmoqda. O‘zim borgan, kitob hidi anqigan zallarda soatlab mutolaaga berilgan kutubxonalarni eslab, ularning ayrimlari nima sabab gavjum-u, boshqasi nega huvullab qolganligi haqida o‘zimcha fikr yuritaman. Shu savollarimga javob topish kutubxonalarni kitobxondan ayrilishdek hasratdan qutqaradigandek tuyuladi.

Axborot-kutubxona markazlarining barchasida ham resurslar masalasi qoniqarli emas deb hisoblayman. Ba’zi kutubxonalarda hanuz rus tilidagi yoki juda eski nashrdagi sarg‘aygan, ta’mirtalab ahvolga kelib qolgan kitoblar saqlanadi. Ulardan foydalanish imkoni yo‘qligi bilan birga ba’zilari bugungi kitobxon, o‘quvchi yoki talaba uchun keraksiz hamdir. Kutubxonaning elektron va audiokitoblar fondiga kelsak, bundan ham og‘irroq ahvolda bo‘lishi mumkin. Kitobxonlarning kelmasligi, kutubxonada vaqt o‘tkazmasligiga mana shu muammo ham sabab emasmikan? Hozirgi raqamli davrda ko‘pchilik ma’lumotni internet orqali qabul qilishga odatlangan. Xususan, yoshlar, ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchi olimlar toifasi elektron resurslarga ehtiyoj sezadilar. Qolaversa, ular kitobdan o‘qiganlarini yon daftariga qayd qilishga emas, elektron manbadan o‘qib-o‘rganib, kerakli ma’lumotlarni kompyuterda saqlashga odatlanishgan. Ammo ayrim axborot-resurs markazlarida elektron kataloglar, onlayn xizmatlar yoki elektron kitoblardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Bu ham yosh avlodni kutubxonadan uzoqlashtirishi turgan gap.

Kutubxonaning muhtasham binosi ham yordam bermaydigandek.

Masalan, maktabda tahsil olayotgan jiyanim bilan shu mavzuda suhbatlashganimizda uning javobidan hayratga tushgandim. Uning aytishicha, adabiyot ustozi tavsiya qilgan ba’zi badiiy kitoblar maktab kutubxonasida umuman mavjud emas. Qolaversa, jiyanim va sinfdoshlari darsdan keyin o‘quv markazidagi qo‘shimcha to‘garaklari boshlanguncha



biror tinch, qulay joyda dars qilish, vazifalarni bajarib, takrorlab olishni istashadi. Ammo maktab kutubxonasi ko‘pincha yopiq, qolaversa, xona tor, yetarlicha yoritilmagan va parta, stol-stullar yetarli emasmish. Albatta, bunday kutubxona o‘quvchilarni o‘ziga tortmaydi, balki ularga zerikarli, faqat kitob olib, qayta topshiriladigan bo‘limdek ko‘rinadi. O‘shanda jiyanimdan, kutubxonangizda biror uchrashuv, tadbir yoki adabiyot va kitobxonlik bilan bog‘liq tanlovlar o‘tkazib turiladimi, deb so‘radim. U esa bunday voqeani eslay olmasligini aytdi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, nafaqat kutubxona fondi, balki uning moddiy-texnik bazasi, shinam, yorug‘ va qulayligi, asosiy tashrif buyuruvchilar uchun mos dizaynda bezatilgani, xodimlarning xushmuomalaligi ham yuksak ahamiyatga ega.

Kutubxonani ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilish kerak

Shuningdek, u yerda yozuvchi-shoirlar, olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazilishi, tanlovlar e'lon qilinishi ham kutubxonaga bo'lgan qiziqish, mehr-muhabbatni shakllantiradi. Sovuq yoki tor xonalar, eskirgan jihozlar, kitob o'qish uchun qulay muhitning yo'qligi tashrif buyuruvchilar soniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, kutubxonalar o'z faoliyatida mana shu jihatlarga alohida e'tibor qaratishi, shiddat bilan rivojlanayotgan zamondan ortda qolmasligi lozim. Kutubxonalar yosh-u qari e'tiborini birdek tortishi, odamlar hamisha u yerga intilishlari lozim.

Tan olish kerak, bugungi kunda yoshlarning bo'sh vaqtini asosan telefon, ijtimoiy tarmoqlar va turli elektron ko'ngilochar vositalar egallab borayotgani ham kitobxonlikka ta'sir qilmoqda. Bunday holda kutubxonaning muhtasham binosi ham, boy fondi ham yordam bermaydigandek, go'yo. Balki shunday hamdir. Ammo yoshlarni kutubxonalarga jalb etish uchun ular bilan "o'z tillarida gaplashish" lozim. Aytmoqchimanki, ba'zi kutubxonalarda targ'ibot ishlari sustligi, kitob taqdimotlari, ijodiy uchrashuvlar va turli ma'naviy tadbirlarning o'tkazilishidan tashqari ularning ijtimoiy tarmoqlarda faolligi ham kitobxonlarni jalb etishda beqiyos ko'makchi bo'ladi.



Kitob fondi boyitilgan, zamonaviy texnologiyalar joriy etilgan, qulay sharoit yaratilgan ko'plab kutubxonalarda bo'lganman. Ular nafaqat kitobxonlar bilan to'la, balki asosiy vaqtini shu yerda o'tkazadigan, kutubxonaga behad oshufta bo'lgan o'quvchilarga ega. Kutubxona xodimlarining muomalasi, turli did va soha vakili bo'lgan kitobxonlarga birdek tavsiyalar bera olishi, so'ralgan kitobni bosma yoki elektron bazadan tezda topib berishlari kishini xursand qiladi. Javonlar orasida ko'proq qolging, sokin va sermazmun muhitdan ko'proq lazzatlanging keladi. Shukurki, ana shunday faol va davr talabiga mos ishlaydigan kutubxonalar soni ortmoqda. Ularga tashrif buyuruvchilar soni ham ortib, bunday maskanlar yoshlarning sevimli ma'naviy maskaniga aylanmoqda. Mamlakatimizda kutubxonalar faoliyatini yaxshilash, aholini kitobxonlikka targ'ib qilish borasida olib borilayotgan ishlar samarasini bera boshladi. Vatanni sevgan, millat ertasini, kelajak avlodning baxt-u kamolini o'ylaydigan har bir kishi bunday islohot va yangilanishlardan quvonishi turgan gap.

Jiyanimga kelsak, u bugun universitetda oliy ta'lim olmoqda. O'quv yurtidagi, qolaversa, shaharning boshqa axborot-kutubxona markazlariga ham a'zo bo'lgan. O'zi istaganidek ko'rkam, zamonaviy kutubxonalarda javlon urib ilm olmoqda. Unutmaylik, kutubxonalar inson tafakkuri shakllanadigan, dunyoqarashi kengayadigan ma'naviyat o'chog'idir. Ularni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish, kitobxon uchun jozibador va qulay muhit yaratish esa bugun nafaqat kutubxonachilar, balki jamiyat taraqqiyotida o'zini mas'ul deb hisoblaydigan barcha yurtdoshlarimizning umumiy vazifasidir. Zero, kitob va mutolaa qadrlangan yurtda fikrlaydigan, izlanadigan va buyuk kelajakni bunyod etadigan avlod voyaga yetadi.



Muhammadali PO'LATOV

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI:

INNOVATSION TAJRIBALAR AMALIYOTDA



Bugun tibbiyot sohasi shunchaki shifokor tayyorlash bilangina cheklanmaydi. Zamonaviy tibbiy ta'lim ilm-fan, innovatsiyalar, xalqaro tajriba va amaliyotni birlashtirgan murakkab tizimga aylandi. O'zbekistonda ana shunday tizimni shakllantirish yo'lida Toshkent davlat tibbiyot universiteti muhim o'rin egallamoqda. Bugungi kunda universitetda 32 124 nafar talaba tahsil olmoqda. Ularning 28 311 nafari bakalavriat, 1 640 nafari magistratura, 2 115 nafari klinik ordinatura va 58 nafari internatura bosqichida bilim olmoqda. Ta'lim jarayoni 15 ta bakalavriat, 54 ta magistratura, 52 ta klinik ordinatura hamda 42 ta doktorantura yo'nalishi bo'yicha tashkil etilgan. Ammo universitetning bugungi salohiyati faqat talabalar soni bilan emas, balki yaratilgan zamonaviy ta'lim muhiti bilan ham belgilanadi. 15 760 o'rinli o'quv binolari, 5 674 o'rinli talabalar turar joylari va 21 ta zamonaviy laboratoriya bo'lajak shifokorlarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Dunyo sari ochilgan eshik

Toshkent davlat tibbiyot universitetining xalqaro nufuzi tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda bu yerda 3 552 nafar xorijiy talaba tahsil oladi. Bu bakalavriat talabalari umumiy sonining qariyb 14 foizini tashkil etadi. Universitetda 171 ta fan ingliz va rus tillarida o‘qitiladi, 217 ta akademik guruh ham aynan shu tillarda faoliyat yuritadi. Natijada 9 160 nafar talaba xorijiy tillarda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Xalqaro integratsiyaning yana bir muhim yo‘nalishi bu — qo‘shma ta’lim dasturlari. Qozon davlat tibbiyot universiteti, Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti va Privoljsk tadqiqot tibbiyot universiteti bilan hamkorlik yuzlab talabalarga xalqaro diplom olish imkoniyatini yaratmoqda.

Kuchli professor-o`qituvchilar salohiyati

Har qanday oliy ta’lim muassasasining yutug‘i, avvalo, uning ilmiy-pedagogik salohiyati bilan belgilanadi. Shu jihatdan Toshkent davlat tibbiyot universiteti salmoqli ilmiy maktabga ega. Bugungi kunda universitetda 2 835 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat yuritmoqda. Ularning 422 nafari tibbiyot fanlari doktori (DSc), 925 nafari PhD va fan nomzodlari, 160 nafari professor, 455 nafari dotsent hisoblanadi. Universitetning umumiy ilmiy salohiyati 62 foizni tashkil etadi. Professor-o‘qituvchilarning 86 foizi ingliz tilini, 61 foizi rus tilini biladi. Shuningdek, 1 573 nafar pedagog IELTS, TOEFL va boshqa xalqaro sertifikatlarga ega.





Xalqaro akkreditatsiya va reytinglardagi yutuqlar

So‘nggi yillarda universitet xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish borasida muhim natijalarga erishdi. Xususan, 19 ta ta’lim dasturi IAAR xalqaro akkreditatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tdi. Ta’lim jarayoniga WFME (World Federation for Medical Education) standartlari keng joriy etildi. Bugungi kunda universitet dunyoning nufuzli reytinglari — QS World University Rankings, QS Asia Rankings, Times Higher Education (THE), GreenMetric hamda Webometrics reytinglarida ishtirok etmoqda. Hozirda universitet Webometrics reytingida 6830-o‘rinni egallab turibdi. 2026-yil yakuni bo‘yicha 3000 talikka, 2027-yilda esa 1000 talikka kirish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, universitet QS va THE reytinglarida munosib natijalarga erishish bo‘yicha zarur tayyorgarlik ishlarini izchil davom ettirmoqda.

Universitetning xalqaro nufuzi ortmoqda



Akademik mobillik va xalqaro hamkorlik

Universitet xalqaro hamkorlik geografiyasini muntazam kengaytirib bormoqda. Rossiya, Janubiy Koreya, Belarus, Tojikiston, Turkiya va boshqa davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik memorandumlari imzolangan. Akademik mobillik dasturlari doirasida 181 nafar xodim xalqaro almashinuv dasturlarida qatnashgan. Shuningdek, 141 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassis AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Finlyandiya va boshqa mamlakatlarning nufuzli universitetlari hamda klinikalarida malaka oshirgan. Bugungi kunda xalqaro hamkorlik nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki ilg'or tajribalarni o'zlashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va universitetning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ilm-fan va innovatsiyalar

Toshkent davlat tibbiyot universitetida ilmiy tadqiqotlar izchil rivojlanmoqda. Universitet olimlari yurak-qon tomir, nevrologik, onkologik va bolalar kasalliklari bo'yicha fundamental hamda amaliy loyihalarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarini tibbiyotga joriy etish borasidagi ishlanmalar alohida e'tiborga loyiq. Universitet olimlari tomonidan yuz-jag' jarrohligida sun'iy intellekt integratsiyasi, HealthRunApp sog'lomlashtirish dasturi, Homila AI mobil ilovasi, Alscan onkologik diagnostika platformasi, SCARAI dermatologik tashxis tizimi, NutriUZ mobil dasturi hamda AnaSM anatomik o'quv platformasi yaratildi. Mazkur innovatsion ishlanmalar bugungi kunda bir qator xususiy klinikalarda qo'llanilib, tashxis qo'yish aniqligini oshirish, davolash samaradorligini kuchaytirish hamda vaqt va mablag'ni tejash imkonini bermoqda. Universitet olimlari bugungi kungacha 80 ta patent va ilmiy ixtiro yaratgan. Bu universitet ilmiy salohiyatining yuksak darajasini yaqqol namoyon etadi. Talabalarning amaliy tayyorgarligini yanada mustahkamlash maqsadida universitetning uchta kampusida simulyatsion markazlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ushbu markazlarda stomatologiya, pediatriya va davolash ishi yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar bemorlar bilan ishlash ko'nikmalarini amaliyotga yaqin sharoitda egallamoqda. Universitet olimlari tomonidan yaratilgan "Avitsenna" elektron doskasi inson organlarini o'zbekcha nomlari bilan o'rganishga yordam beradi. U dunyodagi shunga o'xshash analogi bo'lgan "Pirogov" stolidan ikki barobar arzon bo'lib, til nuqtayi nazaridan ham ustunliklarga ega. Hozirdanoq ushbu anatomik stolga mamlakatimizning boshqa tibbiyot oliy ta'lim muassasalari tomonidan qiziqish bildirilmoqda.



Yoshlar manfaati ustuvor vazifa

Toshkent davlat tibbiyot universitetida 2025–2026-o‘quv yili davomida talaba-yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ma’naviy muhitni mustahkamlash hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. O‘quv yili yakunlari bu boradagi yutuqlar va erishilgan natijalar bilan ajralib turadi. Universitetda “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlari muntazam tashkil etildi. Vazir, rektor, prorektor va dekanlar ishtirokidagi ochiq muloqotlar talabalarning murojaat va takliflarini o‘rganish, ularni tezkor hal etish hamda yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashda samarali maydonga aylandi. Talabalarning ruhiy salomatligi va ijtimoiy moslashuviga ham alohida e’tibor qaratildi. O‘quv yili davomida Ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazi tomonidan 26 ming 126 nafar talabaga psixologik-pedagogik xizmatlar ko‘rsatildi. Shuningdek, 11 831 dan ortiq profilaktik va targ‘ibot tadbirlari tashkil etildi, 1 704 nafar talaba bilan yakka tartibdagi suhbatlar o‘tkazildi. Natijada 344 nafar talabaning murojaati ijobiy hal etildi, 286 nafar yoshga professional psixologik maslahatlar berildi. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish, xavfsizlikni ta’minlash hamda odob-axloq tamoyillarini mustahkamlash bo‘yicha ham tizimli ishlar olib borildi. Talaba-yoshlar o‘rtasida halollik, qonunlarga hurmat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga qaratilgan ko‘plab targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi.





548 talaba stipendiya va mukofotlar sovrindori bo`ldi



Talabalarni qo`llab-quvvatlash doimiy e´tiborda

Talabalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash universitet rahbariyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. 2025–2026-o‘quv yilida nomdor va davlat stipendiyalari, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni rag‘batlantirish uchun jami 17 milliard 400 million so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Ushbu mablag‘ning 9 milliard 990 million so‘mi budjetdan tashqari manbalar, 7 milliard 380 million so‘mi esa davlat budjeti hisobidan moliyalashtirildi. Talabalar turar joylari bilan bog‘liq masalalar ham doimiy nazoratda bo‘ldi. O‘quv yili davomida 9 841 ta ariza qabul qilinib, 5 741 nafar talabaning murojaati ijobiy hal etildi. Bundan tashqari, ijara xonadonlarida istiqomat qilayotgan talabalarning bir qismiga ijara to‘lovlari kompensatsiyasi ajratildi.

Iqtidorli yoshlar safi kengaymoqda

Universitet talabalarining ilmiy va intellektual salohiyati yildan-yilga yuksalib bormoqda. O‘quv yili davomida 548 nafar talaba davlat stipendiyalari va mukofotlar sovrindori bo‘ldi. Ularning 3 nafari Prezident stipendiyasi, 45 nafari Ibn Sino, Islom Karimov va Mirzo Ulug‘bek nomidagi davlat stipendiyalari sohibiga aylandi. Shuningdek, 500 nafar talaba turli nomdor stipendiyalar bilan taqdirlandi. Talabalar “Zakovat”, “Intellektual olimpiada”, “Adrenalin”, “Yorqin kelajak” kabi nufuzli tanlov va musobaqalarda faol ishtirok etib, respublika hamda xalqaro miqyosdagi bellashuvlarda universitet sharafini munosib himoya qildi.

Ma’naviyat va sport uyg`unligi

Universitetda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bu yerda 15 ta badiiy havaskorlik to‘garagi, 40 ta sport va intellektual to‘garak, shuningdek, talabalar tashabbusi bilan tashkil etilgan 20 ta klub va to‘garak faoliyat yuritmoqda. Ularda minglab yoshlar o‘z qiziqishlari asosida shug‘ullanib, iste’dod va qobiliyatlarini namoyon etmoqda. Sport sohasida ham salmoqli natijalarga erishildi. Universitetning 15 mingdan ortiq talabasi sport tadbirlariga jalb etildi. Talabalar voleybol, futbol, basketbol, stol tennisi, shaxmat, kibersport va boshqa sport turlari bo‘yicha respublika hamda xalqaro musobaqalarda o‘nlab sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritib, universitet nufuzini yanada yuksaltirmoqda. Bugungi kunda Toshkent davlat tibbiyot universitetida yaratilgan keng imkoniyat va sharoitlar, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli ishlar hamda ta’lim, ilm-fan, sport va ma’naviyat yo‘nalishlarida erishilgan natijalar uni mamlakatimizning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlamoqda. Eng muhimi, bu yerda nafaqat malakali shifokorlar, balki yuksak ma’naviyatli, vatanparvar va tashabbuskor yoshlar kamol topmoqda.

Talabalarda halollik, qonunlarga hurmat shakllantirilmoqda




Kelajak sari dadil qadamlar

Bugungi kunda Toshkent davlat tibbiyot universiteti ta’lim, ilm-fan, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarida erishayotgan natijalari bilan mamlakatimiz oliy ta’lim tizimining yetakchi maskanlaridan biriga aylanmoqda. Universitetda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xalqaro akkreditatsiya jarayonlari, zamonaviy ilmiy ishlanmalar hamda yosh mutaxassislarni tayyorlash borasidagi sa’y-harakatlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Tibbiy ta’lim sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro maydondagi nufuzni mustahkamlash yo‘lida Toshkent davlat tibbiyot universiteti o‘z oldiga qo‘ygan ulkan maqsadlar sari izchil odimlamoqda.



Shahrizoda CHORSHANBIYEVA

SUN'IY GO'ZALLIK *qurbonlari*



Yashirishga hojat yo'q, bugungi kun go'zallik standartlari nafaqat tashqi ko'rinishga, balki inson hayotining barcha jabhalariga ham ta'sir ko'rsatyapti. Taniqli shou-biznes vakillari va teleboshlovchilar bu borada otni allaqachon qamchilagan. Balki shuning uchundir, ayni davrda ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar, reklama roliklari, layfstayl bloglari bir ovozdan zamonaviy go'zallik formulasini taklif qilmoqda: lablarni shishiring, kamchiliklarni yashiring, qo'shimcha rangli sochlar ulang, yuzingiz yoki qomatingizga xirurgik protsedura jalb qiling. Nainki yuzlab, minglab ayollar xayolida shu bosqichlar amalga oshirilgandagina "ideal go'zallik" sohibasiga aylanar ekanlar. "Turmush o'rtog'im burnim qiyshiqligini yuzimga soladi", "Lablarim katta-katta bo'lsa, yigitlarga yoqaman", "Falon artist oshqozonining yarmini oldirib tashlabdi, ozishda super natijaga erishgan"... Ammo bu jarayon insonning o'z-o'ziga bo'lgan adekvat ishonch darajasi hamda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ham chetlab o'tmayapti. Ya'ni ko'pchilik sun'iy go'zallikning salbiy oqibatlari, moliyaviy xavfi, qo'yingki, psixologik bosimi haqida yetarli darajada bosh qotirayotgani yo'q. Haqiqatan, go'zallik kimga ham yoqmaydi, deysiz?! Biroq bu tabiiy qiyofaning qadrsizlanishi evaziga bo'lishi kerakmi? Nahotki, tabiiylik endi yetarli emas, balki eskirgan tushuncha deya qabul qilinayotgan bo'lsa? Quyida ushbu masalani tahlil qilishga harakat qilamiz.

Go‘zallik me’yorlarining tarixiy ildizlari

Inson tabiatida azaldan go‘zallikka intilish, o‘zi yaratgan olamda estetik muvozanat izlash istagi bor. Shu uchun ham odamzot, O‘tkir Hoshimov ta’biri bilan aytganda, kaftdek hovlisiga pomidor emas, gul ekadi. Biz go‘zallik tushunchasini o‘z ongimiz, dunyoqarashimizdan kelib chiqib, turfa tasavvur qilamiz. Lekin baribir qalbimizda yaratuvchanlik, ilhom, yashash va yasharish hissi mavj uraveradi. Bu – hissiyotning kuchi! Keling, gapni biroz uzoqdan boshlayman. Qadimdan buyuk rassomlar o‘z asarlarida bu tushunchani turli ranglar palitrasida o‘ziga xos tasvirlar orqali anglatishga uringan, shoirlar yozgan she’rlarida asl go‘zallik vasfini qog‘ozga to‘kkan, faylasuflar esa insoniyat oldiga javobi mavhum savollar qo‘ygan. Shundan kelib chiqib, bu borada har bir davr o‘z mezonlarini belgilagan, deya olamiz.



Kosmetikada ham demokratlashuv kuzatildi

Masalan, Qadimgi Misrda Nefertiti yuzining simmetrik chizmalari insonning ichki barqarorligi va ma’naviy go‘zalligini o‘zida aks ettirgan. Manbalarga ko‘ra, misrliklar uchun ideal qiyofa hukmronlik hamda saltanat timsolini ham ifodalardi. Misr malikasi Kleopatra ko‘zi atrofiga surtilgan kohl – qora kukundan ham kuch ramzi sifatida, ham kohlning antibakterial xususiyati uchun foydalangan. Bu unga dushman hududida ko‘zlarini infeksiyalardan himoyalashga yordam bergan.

Yunon ayollari lab va yonoqlarni bo‘yash uchun maydalangan rezavorlar aralashmasidan foydalanganlar. Rim ayollari esa ko‘proq sun’iy go‘zallikni o‘zlashtirdilar – oq qo‘rg‘oshin kukunlaridan yuzni oqartirish uchun foydalandilar, bu, afsuski, sog‘liq uchun zararli ekanini isbotladi. Bu xavf uyg‘onish davri go‘zallik sanoatida yana bir pog‘ona yuqoriladi. Gap shundaki, uyg‘onish davri ayollari o‘sha davrning go‘zallik me’yorlariga rioya qilish uchun o‘z sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yishga tayyor edilar, ular go‘zallikka qo‘rg‘oshin asosidagi o‘ta zaharli birikma yordamida erishishdi. Gretsiyada mazkur me’yorlar ko‘pincha uzoq muddatli jismoniy mehnat va sodda pardoz sifatida qabul qilingan. O‘rta asrlarga kelib, go‘zallik in’ikosi o‘sha davr jamiyatining juda ko‘p hollarda din va ijtimoiy normalariga moslashtirilgan. Uyg‘onish davrida inson qiyofasining realistik va tabiiy jihatlariga urg‘u beriladi.


XIX asr bo‘yanish tarixida burilish nuqta bo‘ldi. Ommaviy ishlab chiqarish boshlanib, kosmetikada demokratlashuv kuzatildi. Bu davrgacha bo‘yanish yuqori sinflar uchungina ajratilgandi. Keyinchalik o‘rta sinf uchun ham to‘siq qolmadi. Biroq bu davrda bo‘yanish bilan birga axloq ham o‘zgara boshladi. Leonardo da Vinchi yoki Mikelandjeloning asarlari aynan go‘zallik va jismoniy komillik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘zida aks ettirganidan yaxshi xabardorsiz, albatta. Demak, mavzumiz dominantasining asosiy mezonlari jamiyatning qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Hozirgi kunda esa bular sun’iy variant orqali yangidan shakllantirilmoqda.

Avval go`zallikning asosiy ko`rsatkichi tabiiylik edi

Bugungi kun go`zallik sanoati

So‘nggi o‘n yillikda kosmetik sanoat misli ko‘rilmagan sur’atda rivojlandi. Qadimiy uslublardan farqli o‘laroq, hozirgi jarayonlar inson qiyofasini nafaqat tashqi, balki tubdan o‘zgartirishni ko‘zlaydi, degan iddaolar bor. Ularga misol qilib, estetik operatsiyalar (rinoplastika – burun shaklini o‘zgartirish, liposaksiya – tanadagi ortiqcha yog‘ to‘qimalarini kamaytirish, ko‘krak implantlari va boshqa ko‘plab turdagi estetik amaliyotlar kiradi) hamda kosmetik inyeksiyalar (filler – yuzdagi ajinlar yoki nozambiol chuqurliklarni tekislash, botoks – labni shishirish, PRP terapiyasi – in vitro urug‘lantirishni (IVF) davolash paytida trombotsitlarga boy plazma (PRP) qo‘llanilishi) tanani yoshartirish uchun eng ommalashgan usullardan hisoblanadi.

Plastik jarrohlik, estetik protseduralar va kosmetika bozori jahon iqtisodiyotining eng tez o‘sib borayotgan sohalaridan biri ekanini “Global Industry Analysis”ning quyidagi ma’lumoti ham isbotlaydi. Qayd etilishicha, 2023-yilda plastik jarrohlik industriyasining umumiy qiymati 15 milliard AQSH dollariga yetgan, soha mijozlari har yili 9-10% ga ortib bormoqda. Bizningcha, yuqoridagi raqamlar jamiyatda sun’iy go‘zallikning qanchalik ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Biroq jarayon tashqi qiyofadagi o‘zgarishni emas, ichki hissiyotlarga ham emotsional bosim o‘tkazishini tan olish kerak.



Statistikaga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘ylab 35 milliondan ortiq kosmetik jarrohlik amalga oshirilgan. AQSH, Janubiy Koreya, Turkiya kabi davlatlar estetik xirurgiya markazlariga aylanib ulgurdi. O‘zbekiston ham bu jarayondan chetda qolmadi. Mamlakatdagi kosmetologiya klinikalari soni oxirgi yillarda sezilarli ravishda ko‘paydi. Yangi texnologiyalardan foydalanish orqali yuz terisini tiniqlashtirish, labni kattalashtirish, qosh terdirish va tirnoqlar parvarishi yoki tanadagi nuqsonlarni yo‘qotish xizmatlari ommalashdi. Ko‘p hollarda bunday jarayonda asosiy mijozlar yoshlar, ayniqsa 18-30 yoshli qizlar bo‘ldi. Bunga ijtimoiy tarmoqlardagi ta’sir, o‘z qiyofasini to‘g‘ri qabul qilmaslik va jamiyatning zohiriy go‘zallikka bo‘lgan e’tibori sabab bo‘lmoqda.

– Har bir inson unikal, uni o‘zgartirishga urinish emas, balki tabiiyligini qadrlash orqali jamiyatda sog‘lom muhit yaratish mumkin, – deydi ijtimoiy psixolog Muxlisa Abdukomilova. – Sun’iy go‘zallik orzusi, unga yetmaslikdan kelib chiqadigan depressiya va ijtimoiy bosimlardan qutulish uchun har birimiz, avvalo, o‘zligimizni hurmat qilishni o‘rganishimiz kerak. Bilasizmi, ayni zamonda sun’iy go‘zallik standartlarini yaratishda ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining roli tobora ortib bormoqda. Ya’ni “Instagram”, “Tik-tok” tarmoqlarida media

jo‘natishning maxsus pardoz vositalari, “Play Market” marketpleysidagi “Snapchat”, “Persona”, “Cup Cut” kabi ilovalarda “ideal qiyofa” konsepsiyasi keng tarqalyapti. Hozirgi dunyoda tanaga nisbatan “ishlab chiqarish”ga o‘xshash munosabat shakllandi: tana “kamchilik”lardan xoli bo‘lishi kerak va idealga mos bo‘lish uchun qayta yaratilishi lozim. Mazkur ideal go‘zallik me’yorlari millionlab insonlarning o‘zini qabul qila olmasligiga sabab bo‘lyapti. Bu esa yoshlar o‘rtasida kosmetik amaliyotlarga bo‘lgan qiziqishning o‘sishiga olib keladi.

Keling, shu o‘rinda masalaning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rib chiqamiz.

– Zamonaviy estetik tibbiyot va kosmetik korreksiyalar ko‘plab afzalliklari bilan ajralib turadi, – deydi professional estetist Dildora. – Masalan, teridagi chandiqlar, yuzdagi dog‘lar, “poralar” yoki kuyish asoratlari insonning ruhiy holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Kosmetologik xizmatlarimiz orqali bu kabi nuqsonlarni bartaraf eta olamiz. Mijozning tashqi ko‘rinishini yaxshilab, jamiyatda o‘zini erkin va yoqimli his qilishiga imkoniyatimiz yetarli. Faqat protsedura uchun original mahsulotlar, belgilangan tavsiyalar, eng asosiysi, har bir organizm individualligini unutmagan holda bilim va tajribani ishga solib, xizmat ko‘rsatilsa bo‘lgani. Unutmaslik lozim, haqiqiy kosmetolog foydadan ko‘ra mijoz roziligini ustun ko‘radi.

Estetist fikricha, tabiiy usullar orqali yillar davomida natijaga yetishish qiyin bo‘lsa, kosmetik xizmatlar qisqa vaqt ichida aniq va samarali yechim taqdim etadi. Masalan, fillerlar qo‘llanganda, teridagi ajinlardan bir necha kun ichida qutilish mumkin. O‘ziga xoslik shundaki, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullar o‘rinli tatbiq etilganda, estetik o‘zgarishlar yoshga bog‘liq bo‘lmay qoladi. (Qo‘pol qilib aytganda, mahoratli kosmetolog kampirni ham qo‘g‘irchoqqa aylantirib qo‘yadi). Yoshlarga ham, kattalarga ham mos keladigan kosmetik xizmatlar inson ehtiyojlarini inobatga olgan holda taklif etiladi.

Umuman, qadimda go‘zallikning asosiy ko‘rsatkichi tabiiylik edi. Masalan, Sharqda guruch suvi yordamida tozalangan yuz, qora qosh, jilvakor uzun sochlar ayollarning go‘zalligi ramzi sifatida qaralardi. Sharqiy osiyoliklar esa soch turmaklarida ko‘proq nafislikka e’tibor qaratishgan. Ularning fikriga ko‘ra, go‘zallik tabiatning tuhfasi emas, balki san’at va mehnatning natijasi bo‘lishi lozim edi. Shuningdek, xalq tabobati, efir moylari, giyohlardan tayyorlangan niqoblar kabi usullar ayollarning o‘z qiyofalarini saqlash va go‘zalligini oshirish yo‘lida sinalgan vositalar bo‘lgan. Ammo hozir vaqt nuqtayi nazari, avlodlar o‘rtasidagi tafovut va rivojlanish bosqichi o‘z so‘zini aytmasdan qolmadi. Ammo takror va takror ta’kidlaymizki, bugungi kunda sun’iy go‘zallik xizmatlaridan foydalanayotgan ayol-qizlarga yoppasiga loy chaplash o‘rinsiz bo‘ladi. Sababi taklif etilayotgan kosmetik inyeksiyalar va estetist tavsiyalari ba’zi ayollarga haqiqatan ham yordam bergan, foydasi tekkan.



Ba’zi ayollarga foydasi tekkan



– Avvalo, bizning jamiyatda kosmetologga bo‘lgan salbiy munosabatni alohida yoritayotganingdan xursandman, – deydi Muqaddam Mamatova. – Shuni alohida ta’kidlashni istardim: kosmetolog yoki estetist degani, albatta, labni shishirib, qoshning shaklini o‘zgartirishni anglatmaydi. Bu ham bugungi zamonaviy tibbiyotning bir yo‘nalishi. Xuddi shifokor tanamizdagi muammolarni bartaraf etganidek, kosmetolog ham go‘zal ko‘rinishimiz uchun harakat qiladi. Birgina yuzdagi toshmalarni olaylik. Bu deyarli har 10 kishining 7 tasiga begona emas. Men qandaydir muammo ichida o‘smaganman, kichikligimda ko‘p quyosh nuri ostida bo‘lganman, qovog‘im sal shishgan, peshonamda chiziqlar bor edi. Yuz terim juda quruq bo‘lgani uchun vaqti-vaqti bilan “chistka” va maxsus “uxod”larga borib turaman. Foydasi bo‘ladi. Bozordan duch kelgan narsani olib kelib, surgandan ko‘ra, ozgina xarajat bilan malakali mutaxassisga ko‘ringan yaxshi, deb o‘ylayman. Ayol kishi yaqinlari uchun yilda hech qursa 2 marotaba kosmetologga borsa, buning nimasi yomon?

Tarmoqlarda tarqaladigan “qo‘rqinchli tasvirlar” professionalizmdan xoli amaliyotlardir!

– “Parda ortida”gi ma’lumotlarga ko‘ra, kosmetik muolajalarning bir nechta jiddiy ta’sirlari kuzatiladi, – deydi filolog Hilola Mirzayeva. – Birinchisi, inson bir marta boshlagandan so‘ng o‘zini to‘xtata olmasligi. Masalan, avval labiga 0,5 ml gel quydirgan bo‘lsa, keyingi safar 1 ml, undan keyin 1,5 ml.gacha oshirib boraveradi. Bu holat botolatoksinga tobora mukkasidan ketishga olib kelishi aniq. Shaxsan o‘zim bu muolajalarga murojaat qilishga jur’at etmaganman. Tasavvur qiling, agar tabiiy ko‘rinishingizga qaytish imkoniyati qolmasa, bu juda katta yo‘qotish, degani. Shu sababli tabiiylikni saqlash, lozim bo‘lganda bachkanalikdan xoli pardoz yetarli, deb bilaman.

Hilola Mirzayevaning fikricha, teriga kiritilgan «to‘ldiruvchi» natijasida terining bo‘shashishi va osilishi yanada kuchayadi. Oqibatda inson kosmetik muolajalarni doimiy ravishda bajarishga, hatto har gal yanada qimmat turlaridan foydalanishga majbur bo‘ladi. Shuningdek, ko‘p hollarda kosmetologlar o‘z daromadlarini oshirish maqsadida mijozlarga haqiqatan ham zarur bo‘lmagan, keraksiz protseduralarni tavsiya qiladi.

Chiroyli bo`lib ketganimni bir oynada ko`ray, desam kuygan yuzni ko`rganman

– Ilk marta labim shaklini o‘zgartirish uchun klinikaga borganimda, jarrohlik muvaffaqiyatli kechdi, – deydi 29 yoshli Shahzoda. – Biroq ikkinchi protseduram boshqa klinikada bo‘ldi. Labimdagi inyeksiya noto‘g‘ri qilingan ekan, shish kuzatildi. Oqibatda, davolanish uchun yana katta xarajatga tushdim. Keyin yaxshilab surishtirsam, ikkinchi muolaja qildirgan joyda original mahsulotlar ishlatilmas ekan. Narxlarda esa tafovut yo‘q. Bu – insofsizlik. Tag‘in ham bir martalik shprislar, qo‘lqoplar olib borib berganim. Kim bilsin, pul uchun bedavo dardlarga chalinib qolishing ham mumkin bundaylar qo‘lida.

– Yuzimga ugri toshgani uchun plazmolifting muolajasini qildirganman, – deydi Madina Rajabova. – Kimga qanday, lekin foydasini sezmadim. Boshqa professional kosmetologdan zarur vositalar olaman va shu to‘plam

bilan yuraman. Natijasi keyin bilindi. Bu ham xarajat. O‘rtacha oylik yetmaydi.

– O‘tgan yili yozda rosa qorayib ketganman, – deydi Sabina Azizova. – Oqartiradigan piling sotib oldim. Yuzim kuyib qolgan. Uyga borib, chiroyli bo‘lib ketganimni bir oynada ko‘ray, desam kuygan yuzni ko‘rganman. Qo‘rqib ketganman. Tanish dermatolog tavsiyalari bilan yaxshi bo‘ldim. Ammo kosmetologik amaliyotlardan ko‘nglim qoldi.

“Telegram” tarmog‘idagi “Kopirayterlar jamoasi” guruhida o‘tkazilgan “Xotin-qizlar o‘rtasida kosmetologik xizmatlardan foydalanish” mavzusidagi so‘rovnomaga ko‘ra, respondentlarning 54 foizi kosmetologik xizmatlardan bir yoki ikki marotaba bo‘lsa ham foydalanganini ma’lum qilgan. Qolgan 46 foizi uy sharoitida va ijtimoiy tarmoqlardagi estetist sahifalari orqali yuz parvarishini amalga oshirishini aytgan. Albatta, har bir inson o‘z qiyofasidan mamnun bo‘lishni, o‘ziga nisbatan ishonch hissini tuyishni xohlaydi. Bugungi kunda kosmetologik xizmatlar nafaqat tashqi ko‘rinishni yaxshilash, balki odamlarning ichki ruhiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatish bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq mamlakatimizda soha yetarli darajada professional kadrlarni qamrab olmagani tufayli amalga oshirilgan kosmetologik xizmatlarning katta qismi kutilgandan ko‘ra salbiy, birmuncha yomon oqibatlarga olib kelganining guvohi bo‘layapmiz. Bunga to‘xtalishdan avval biz inobatga olmagan jihatlarni keltirib o‘tish o‘rinli bo‘ladi.



Go`zallik shaxsiy tarbiyamizni ifodalash vositasi

– Qarilikni har kim ham oson qabul qilmaydi, – deydi plastik jarroh Nodir Ibatov. – Ammo vaqt o‘z hukmini o‘tkazadi. Masalan, teri osilishini olaylik. Bu ham bir kasallik. Shuning natijasida qosh va ko‘z o‘rtasidagi teri qatlami qovoqqa yuk bo‘lib tushadi. Bu ko‘zdagi bosimni oshirib, og‘riq paydo qiladi. Plastik operatsiyamiz yordamida buni bartaraf qilish mumkin. Yoki bo‘lmasa, burun plastikasi faqat chiroyli ko‘rinish uchun qilinmaydi. Ichiga kirsak, ikki xil plastika bor: estetik va funksional. Nafas olishni yaxshilash bo‘yicha chora sifatida ko‘rilsa, bu funksional. Hazil ohangida aytsak, “Uzun burningni har joyga suqaverma” ko‘rinishida muammoni hal qilishga qaratilgan bo‘lsa, estetik bo‘ladi. Kechirib qo‘yasiz-u, ijtimoiy tarmoqlarda qo‘rqitadigan darajada tarqalgan “hosila”lar shunchaki professionalizmdan xoli amaliyotlardir. Bunda bemorning ham aybi bor, avvalo, u kosmetolog yoki plastik jarrohdan malaka sertifikati yoki oliy ta’lim diplomi, xizmat ko‘rsatish guvohnomasini so‘rashi va avvalgi mijozlari fikrini o‘rganish lozim.


Xulosa chiqarish har kimning o‘ziga havola. Ammo go‘zallik bu sun’iylik degani emas, balki kimligimiz, g‘oyalarimiz va eng asosiysi, millatimiz hamda shaxsiy tarbiyamizni ifodalashning vositasidir. Shunday ekan, bu borada ham oltin o‘rtalikka rioya qilinsa, haminqadar xohish emas, balki zarurat tufayli ehtiyoj sezilsa, ishonchli mutaxassislarga uchragan ma’qul. “Onangni otangga bepardoz ko‘rsatma” deydi xalqimiz. Zero, zamonaviy vositalar tabiiylikni yanada yorqin namoyon etishga yordam berishi lozim, uni yo‘q qilishga emas.

Ilhomjon ABDUSALOMOV
O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

OLIS QIT'ADAGI TAFAKKUR

Assalomu alaykum, vatandoshlarim. Men Isfandiyor Alijonov Namangan viloyatida tug'ilib o'sganman. Hozirda Avstraliyaning Melburn Qirollik texnogiyalar institutining talabasiman.

Bugun sizlar bilan Avstraliyadagi talabalik hayotim, bu yerda ko'rgan-kechirganlarim va menga katta saboq bo'lgan tajribalarim haqida o'rtoqlashmoqchiman. Umid qilamanki, bu suhbat sizni yangi marralar sari intilishga va dunyoga yanada kengroq nigoh bilan qarashga undaydi.





Yangi mamlakat, yangi dunyoqarash

Ba’zan inson hayotida shunday qarorlar bo‘ladiki, ular uning kelajagini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Men uchun Avstraliyaga kelish ana shunday qarorlardan biri bo‘ldi. O‘zbekistonda ulg‘aygan, ekologiya va jamiyat masalalariga qiziqqan yosh sifatida men doimo dunyoni kengroq ko‘rishni, turli madaniyatlarni o‘rganishni va xalqaro tajriba orttirishni xohlaganman. Biroq Avstraliyaga kelishimdan oldin bu tajriba hayotimni qanchalik o‘zgartirishini tasavvur ham qilmagan edim.

Bugun ortga nazar tashlar ekanman, Avstraliya menga nafaqat ta’lim, balki yangi dunyoqarash, yangi do‘stlar, yangi qadriyatlar va, eng muhimi, o‘zimni yanada chuqurroq anglash imkoniyatini berganini tushunaman. Bu yerda o‘tkazgan vaqtim davomida insonning rivojlanishi uchun ba’zan o‘zining qulay muhitidan chiqib, mutlaqo yangi sharoitga tushishi qanchalik muhim ekanini his qildim.

Avstraliyaga ilk bor kelganimda hamma narsa yangi edi. Aeroportdagi muhit, odamlarning muomalasi, transport tizimi, universitet hayoti va kundalik turmush tarzi men uchun qiziqarli tajriba bo‘ldi. Dastlabki kunlarda, tabiiyki, biroz hayajon va xavotir ham bo‘ldi. Chunki inson o‘zi o‘rgangan muhitdan minglab kilometr uzoqlikka kelganda, ko‘plab yangi vaziyatlarga duch keladi. Biroq vaqt o‘tishi bilan bu qiyinchiliklar o‘z o‘rnini qiziqish va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqqa bo‘shatdi.

Men Avstraliyani faqat ta’lim olish maskani emas, balki yangi imkoniyatlar va tajribalar maktabi sifatida ko‘ra boshladim. Bu yerda eng ko‘p e’tiborimni tortgan jihatlardan biri odamlarning mustaqil fikrlashidir. Avstraliyada yoshlarning fikri qadrlanadi. Talabalar o‘z qarashlarini erkin bildirib, muhokamalarda faol ishtirok etadilar. Universitetlarda ham faqat ma’lumotni yodlash emas, balki tanqidiy fikrlash va muammolarga yechim topish muhim hisoblanadi.

Avstraliyada shaxsiy erkinlik va mustaqillik qadrlanadi

Madaniyatlar chorrahasida

Avstraliya dunyodagi eng ko‘p madaniyatli davlatlardan biri hisoblanadi. Bu yerda yashar ekanman, turli mamlakatlardan kelgan insonlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Bugungi kunda yigirmadan ortiq davlat vakillaridan iborat do‘stlarim bor. Ular orasida osiyoliklar, yevropaliklar, afrikaliklar va lotin amerikaliklar ham bor.



Har bir insonning o‘z hikoyasi, o‘z madaniyati va dunyoqarashi bor. Turli millat vakillari bilan muloqot qilish orqali dunyo qanchalik rang-barang ekanini yanada chuqurroq angladim. Masalan, ayrim mamlakatlarda vaqtga munosabat juda qat’iy bo‘lsa, boshqalarida insoniy munosabatlar birinchi o‘rinda turadi. Ba’zi jamiyatlarda shaxsiy mustaqillik muhim hisoblansa, boshqalarida jamoaviylik va oilaviy qadriyatlar ustuvor sanaladi.

Ana shu farqlar menga bir haqiqatni o‘rgatdi: dunyoda hamma bir xil bo‘lishi shart emas. Muhimi, bir-birimizni tushunishga va hurmat qilishga intilishdir.

O‘xshashliklar va farqlar

Xorijda yashash menga O‘zbekistonni ham boshqacha nigoh bilan ko‘rish imkoniyatini berdi. O‘zbekiston haqida o‘ylaganimda, avvalo, xalqimizning samimiyligi va mehmondo‘stligi yodimga tushadi. O‘zbeklar mehmonni hurmat qiladi, qo‘shnichilik rishtalariga katta ahamiyat beradi, oilaviy qadriyatlarni qadrlaydi.

Avstraliyada esa insonning shaxsiy erkinligi va mustaqilligi ko‘proq qadrlanadi. Odamlar bir-birining tanloviga hurmat bilan qaraydi. Kimningdir dini, millati, jinsi yoki hayot tarzi tufayli kamsitilishi mutlaqo qabul qilinmaydi. Menga yoqqan jihatlardan biri shundaki, bu yerda odamlar boshqalarning fikrini tinglashga harakat qiladi. Turli qarashlarga ega bo‘lish tabiiy hol sifatida qabul qilinadi.



Eng katta muammolardan biri — til

Menimcha, O‘zbekistonning mustahkam oilaviy qadriyatlari bilan Avstraliyaning ochiq fikrlash madaniyati uyg‘unlashsa, yanada kuchli va rivojlangan jamiyat shakllanishi mumkin.

Ekologiya va fuqarolik mas’uliyati

Ekologiya men uchun shunchaki qiziqish emas, balki hayotiy qadriyatdir. Shu sababli Avstraliyadagi ekologik madaniyat menda alohida taassurot qoldirdi. Bu yerda chi-



qindilarni saralash odatiy hol. Odamlar plastik iste'molini kamaytirishga harakat qiladi. Ko'plab fuqarolar ekologik aksiyalarda ko'ngilli sifatida ishtirok etadi.

Eng muhimi, ekologiya faqat hukumatning vazifasi emas, balki har bir fuqaroning mas'uliyati sifatida qaraladi. Bu tajriba menga O'zbekistonda ham ekologik madaniyatni rivojlantirish qanchalik muhim ekanini yanada chuqurroq anglatdi. Zero, tabiatni asrash kelajak avlodlar oldidagi burchimizdir.

Xorijda yashash nimani o'rgatadi?

Ko'pchilik xorijga chiqishni faqat yaxshi diplom yoki yaxshi ish bilan bog'laydi. Albatta, bular muhim. Ammo men uchun xorijda yashashning eng katta foydasi — dunyoqarashning kengayishidir. Siz turli odamlar bilan tanishasiz, turli fikrlarni eshitasiz, turli hayot tarzlarini ko'rasiz. Natijada dunyoga faqat o'zingiz yashab kelgan muhit nuqtayi nazaridan emas, balki global miqyosda qarashni o'rganasiz.

Men Avstraliyaga kelgach, globallashuv tushunchasining asl ma'nosini his qildim. Globallashuv faqat texnologiyalar yoki iqtisodiyot emas. Bu — bir-birimizni tushunish, hamkorlik qilish va umumiy muammolarga birgalikda yechim topishdir.

O'zbekistonlik talabalar haqida kuzatuvlar

Bu yerda yashar ekanman, ko'plab o'zbekistonlik talabalar bilan ham muloqot qildim. Ularning orasida juda iqtidorli, maqsadli va mehnatkash yoshlar ko'p. Biroq ayrim muammolar ham mavjud. Eng katta muammolardan biri — til masalasi. Ba'zi yoshlar ingliz tilini yetarli darajada bilmasdan xorijga keladi. Natijada ular o'qishda ham, ish topishda ham, kundalik hayotga moslashishda ham qiyinchiliklarga duch keladi.

Globallashuv — umumiy muammolarga birgalikda yechim topish





Yana bir kuzatuvim shuki, ayrim talabalar xorijga kelishdagi asosiy maqsadni unutib qo‘yadi. Aslida esa xorijda ta’lim olishning bosh maqsadi bilim orttirish, tajriba to‘plash va shaxs sifatida rivojlanish bo‘lishi kerak. Agar inson o‘z maqsadini yo‘qotsa, ko‘plab imkoniyatlarni ham boy beradi.

Shuning uchun men yoshlarimizga doimo bitta maslahatni beraman: agar xorijda o‘qishni istasangiz, avvalo tilni puxta o‘rganing. Til imkoniyatlar eshigini ochadigan eng muhim kalitdir.

Bugun O‘zbekiston yoshlari bilan suhbatlashganimda ularga bir necha tavsiya bermoqchiman. Birinchidan, katta orzu qilishdan qo‘rqmang. Dunyoda imkoniyatlar juda ko‘p va siz o‘ylaganingizdan ham ko‘proq narsaga erishishingiz mumkin. Ikkinchidan, xorijiy tillarni o‘rganing. Ingliz tili yoki boshqa tillarni bilish siz uchun yangi ufqlarni ochadi. Uchinchidan, boshqa madaniyatlarni hurmat qiling. Sizning madaniyatingiz qanchalik qadrli bo‘lsa, boshqalarniki ham shunchalik qadrli. To‘rtinchidan, o‘z qadriyatlaringiz va prinsiplaringizga sodiq qoling. Dunyoning qayerida bo‘lishingizdan qat’i nazar, aynan shu qadriyatlar sizning shaxsingizni belgilaydi. Va nihoyat, hech qachon maqsadingizni yo‘qotmang. Hayot davomida turli qiyinchiliklar va chalg‘ituvchi omillar uchraydi. Ammo maqsadiga sodiq qolgan inson oxir-oqibat o‘z yo‘lini topadi.

Avstraliyadagi hayot menga faqat akademik bilim emas, balki inson sifatida ulg‘ayish imkoniyatini ham berdi. Men bu yerda yangi madaniyatlar bilan tanishdim, dunyoning turli burchaklaridan kelgan do‘stlar orttirdim va hayotga boshqacha nigoh bilan qarashni o‘rgandim.

Bugun men bir narsaga qat’iy ishonaman: insonning eng katta boyligi uning ochiq fikrlashi, o‘rganishga bo‘lgan intilishi va boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishidir.

Qayerda yashashimizdan qat’i nazar, barchamizni birlashtiradigan umumiy qadriyatlar bor — insoniylik, hurmat, bilim va mas’uliyat. Aynan shu qadriyatlar kelajakda yanada adolatli, barqaror va farovon jamiyat barpo etishimizga xizmat qiladi.

O‘z qadriyatlaringizga sodiq qoling



Men esa o‘z bilim va tajribalarimni kelajakda O‘zbekiston ravnaqi, ekologik barqarorlik va yoshlar rivoji yo‘lida safarbar etishni maqsad qilganman. Chunki haqiqiy muvaffaqiyat faqat shaxsiy yutuqlarda emas, balki jamiyatga foyda keltira olishda namoyon bo‘ladi.

Isfandiyor ALIJONOV
Avstraliyadan “O‘zbekiston talabasi” uchun maxsus

“SHUM BOLA”: HAZIL TAGIDAGI ZIL



O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri G‘afur G‘ulom (1903–1966 yillar) o‘zining keskin hajviy uslubi va hayotiy tasvirlari bilan tanilgan ijodkorlardan edi. Uning asarlarida xalq hayoti, ayniqsa, oddiy insonlarning turmushi, bolalik davrining quvonch va tashvishlari yorqin aksini topgan. Jumladan, XX asr boshlarida Toshkentning ijtimoiy muhitini to‘laqonli aks ettirgan “Shum bola” qissasi ham aynan shu tamoyillar asosida yozilgan.

“Shum bola” qissasi qahramoni – Qoravoy ismli sho‘x va topqir bola atrofidagi voqealar orqali o‘quvchini kuldiribgina qolmay, hayot haqiqatlarini ham chuqur anglashga undaydi. Asar avtobiografik xarakterga ega bo‘lmasa-da, undagi ko‘plab lavhalar yozuvchining bolalik xotiralaridan olingan. Qissada real voqealar bilan birga badiiy to‘qima va fantaziya kuchli rol o‘ynaydi.



“Shum bola” hayotiy saboqlar bilan boyitilgan asar

Asar oddiy bir bolakayning sarguzashtlari orqali jamiyat muammolarini ochib berishi, uning hajviy uslubi va teran ma’naviy mazmuni bilan o‘quvchini hayratga soladi. “Shum bola” qissasi shunchaki kulgi bilan cheklanmay, o‘zida hayot saboqlari va insoniy qadriyatlar haqidagi muhim xulosalarni mujassam etgan. Asar hazil va hajv orqali jamiyatdagi qiyinchiliklarni tasvirlab, ayni paytda hayotning qimmatli saboqlarini ham o‘quvchiga yetkazadi. Muallif bolalarning beozor sho‘xligini, mahallalarning o‘sha davrdagi muhitini va bozorlar hayotini nihoyatda mohirona aks ettirgan. Asarning asosiy qahramoni o‘zining beg‘uborligi, g‘ayrioddiy fikrlash tarzi va sarguzashtlarga boy hayoti bilan o‘quvchini beixtiyor o‘ziga rom etadi.

G‘afur G‘ulom “Shum bola” asarini hajviy ohangda yozgan bo‘lsa-da, unda o‘sha davr jamiyatining real muammolari ham aks etgan. Shum bolaning sarguzashtlari kulgili tuyulsa ham, u orqali xalqning og‘ir turmush tarzi, yo‘qchilik, urush davrining ta’siri va bolalarning qaysidir ma’noda jamiyatning katta qismi sifatida qanday shakllanganini tushunish mumkin. Misol uchun, Shum bolaning yog‘ topish jarayoni juda kulgili tasvirlangan bo‘lsa ham, aslida oilalardagi qashshoqlik, oziq-ovqat yetishmovchiligi singari muammolarni ham o‘zida mujassam etgan. Bundan tashqari, muallifning hajv orqali berilgan tasvirlari bolalarning tabiiy qiziqishlari va o‘z bilganlarini qilishga urinishlarini ochib





Shu ma’noda, “Shum bola” nafaqat kulguli, balki hayotiy saboqlar bilan boyitilgan asardir. G‘afur G‘ulom o‘zining hazilkashligi va realistik tasvirlari orqali o‘sha davr hayotini jonlantirib, o‘quvchini o‘ziga tortadi. Bu asar orqali biz o‘zbek xalqining bolalar tarbiyasiga bo‘lgan mehrini, mahallalar va bozorlarning qanday jonli va qizg‘in bo‘lganini ko‘ramiz. Asar faqatgina kulgu uchun emas, balki hayotning murakkabliklarini tushunish va har qanday sharoitda ham muammolarni yengish uchun yo‘l topish muhimligini anglatish jihatidan ham qadrlidir.

Qissa turli tillarga tarjima qilingan bo‘lib, uning xalqaro miqyosdagi e’tirofi BBC tomonidan tuzilgan “Barcha davrlarning 100 ta eng buyuk bolalar kitoblari” ro‘yxatiga kiritilishi bilan yanada mustahkamlandi. Ushbu ro‘yxatni tuzishda 56 mamlakatdan 177 nafar ekspert ishtirok etgan. Mazkur asar asosida yurtimizda 1977-yili “Shum bola” filmi suratga olinib, u o‘zbek kinosining eng yaxshi namunalari qatoridan o‘rin oldi. Shum bola obrazi esa o‘zining sho‘xligi, topqirligi va beg‘uborligi bilan har bir o‘quvchining qalbidan joy oladi va har safar qayta o‘qiganimizda bizni kuldirib, hayotiy saboqlarni yodimizga soladi.

beradi. Asar qahramoni Qoravoy har bir qiyinchilikka duch kelganida undan kulgili yo‘llar bilan chiqishga harakat qiladi, bu esa bolalarga xos jasorat va topqirlikni ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, asarda Toshkentning eski mahallalari va bozorlarining hayoti nihoyatda realistik tasvirlangan. G‘afur G‘ulom mahallani faqatgina yashash joyi sifatida emas, balki odamlarning bir-biri bilan yaqinligi, hamjihatligi va mehr-oqibati mujassam bo‘lgan ijtimoiy maydon sifatida ko‘rsatgan. Mahallada har bir inson bir-biri bilan bog‘langan, katta-yu kichik bir-birini tanigan, bolalar esa o‘ziga xos o‘yin-kulgilari bilan bu muhitni yanada jonlantirib turgan.

Bozorlar esa, ayniqsa, asarda doimiy ravishda uchrab turadi va Shum bola deyarli har doim o‘z sarguzashtlari davomida bozorga qaytib keladi. Bozor tasvirlari xalqning kundalik hayotini, savdogarlar va xaridorlar orasidagi o‘ziga xos suhbatlarni va hatto mayda firibgarliklarni ham ochib beradi. Bunda muallif xalqning tinib-tinchimasligini, har qanday sharoitda tirikchilik qilishga bo‘lgan intilishini ko‘rsatib beradi.

Munisa TOJIBOYEVA
Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi

Asar orqali o`zbek xalqining bola tarbiyasidagi tajribalarini ko`rish mumkin.

"LAHZ

Jahon chempionati doirasida O‘zbekiston va Portugaliya o‘yinini tomosha qilayotgan o‘zbekistonliklar. 23-iyun. Muallif: Murod Yusuf



Kabo Verde darvozaboni Vozinya Ispaniyaga qarshi o‘yinda darvozasi daxlsizligini to‘la ta‘minladi. 15-iyun. Manba: FIFA







O‘zbekistonning Jahon chempionatidagi 2-golini urgan Eldor Shomurodov uni shu tarzda nishonlamoqda. 28-iyun. Manba: FIFA

2026-yilgi Jahon Chempionatida Marokash hujumchisi Ashraf Hakimi Gaiti darvozasiga birinchi golini urgandagi vaziyat. 24-iyun. Muallif: Klaudia Greko

Anil tutib qol,



Abbosbek Fayzullayev O‘zbekistonning Jahon chempionatidagi ilk goliga mualliflik qildi. Abbosbek gol urgan ushrashuvda O‘zbekiston terma jamoasi Kolumbiyaga 3:1 hisobida yutqazdi.
18-iyun.
Muallif: Yevgeniy Sorochin

Ummon Sultonligidagi Sur Siti qirg‘og‘ida birgina oyog‘i bilan to‘p tepayotgan bolakay.
25-iyun.
Muallif: Husayin al-Amiri





Jahon chempionatida g‘alabali yurish boshlagan Messi.
22-iyun.
Manba: FIFA



“JCh-2026”da Portugaliya va O‘zbekiston o‘rtasidagi guruh bosqichidagi o‘yinda Krishtianu Ronaldu o‘zi urgan golni nishonlamoqda.
23-iyun.
Manba: FIFA

yashab o`t lahzani...“



Italiya, Dolomit tog‘lari.
20-iyun.
Muallif: Piotr Skrzypiec



Fuji tog‘iga nazar.
Yaponiya.
20-iyun.
Muallif: Luke



Sharqiy va Janubiy Afrikada keng tarqalgan dik-dik nomli hayvon. Vazni 3-6 kg, ko‘zlari katta, burni cho‘ziqroq bo‘ladi.
Namibiya.
10-iyun.
Muallif: Luke



Birlashgan qirollikning Okehampton shaharchasidagi noyob manzara.
24-iyun
Mualli: Li Kuper





Angliyaning janubi-g‘arbiy qismidagi Dorset grafligi dalalaridan birida yolg‘iz bo‘y cho‘zib turgan qizg‘aldoq.
15-iyun.
Muallif: Emili Endin

Indoneziyaning Bromo tog‘i etaklarida ot choptirayotgan chavandoz.
19-iyun.
Muallif: Rarindra Prakarsa



Vetnam ko‘chalaridan biri.
21-iyun.
Muallif: Subhajit Mukerji



Filippin mustaqilligi kunida ikki dasta bayroq ko‘tarib yurgan kishi.
12-iyun.
Muallif: Jon Reksel Kostoy



Italiyaning Dolomit tog‘idagi musaffo tabiat.
2-iyun.
Muallif: Mark Denney



Chol va dengiz.
Filippin.
11-iyun.
Muallif: Rey Villegas

Ko‘lmakdagi aks.
Hindiston.
30-iyun.
Muallif: Pritam Kundu





NOMA'LUM AYOL

HIKOYA

Men unga ko‘p bora duch kelganman. Universitetga borish uchun metro bekatining aynan u chiqadigan yo‘lagidan yurishga to‘g‘ri kelardi. Ko‘pincha yonidan sho-shilibgina o‘tib ketardim. Lekin har gal oqsoqlangancha aravacha sudrab borayotgan bu ayol e‘tiborimni tortar, ba‘zan unga orqa tarafdan, ba‘zan oldi tomondan bir ko‘z tashlab qo‘yardim, xolos.

Boshqa safar uni metroning chiqaverish joyidan o‘n qadamcha narida ko‘rdim. Taxta stol, ustiga mayda-chuyda yoyib qo‘yilgan, ayol esa stulchada stoliga suyangancha o‘tirardi. Oldiga tutilgan peshband kirlanib, jigarrang tus olgan, avvalgi rangi qanday bo‘lganini bilib bo‘lmasdi. Oyog‘ida oqish jun paypoq, qalin, xol-xol ko‘ylagining ustidan guli rangi bilan qorishiq, tugmali nimcha kiygandi. Sochlari siyrak, qorasidan ko‘ra oqi ko‘proq, boshining tepasiga o‘rama qilib yig‘ilgan, yuzi ajin bosgan bir qari ayol edi, ehtimol.

U o‘tgan ketganga parvo qilmas, mizg‘ib olmoqchidek, musicha kabi ko‘zlarini ochib yumib o‘tirardi, xolos. Bir gal shu bechora ayoldan nimadir sotib olsammikan, deb o‘ylaganim rost. Taroq, sovun, soch to‘g‘nog‘ich, hasharotlar uchun dori... va yana allambalolar. Biroq narsalarining chang bosib yotishi yoqmasdi. Odamning ko‘ngli tortmaydi.

***

O‘zga bir tilni o‘zlashtirish oson emas. Koreyaga kelganimdan beri urinaman, televizordagi turli dasturlarni ko‘rishga harakat qilaman. Bir gal to‘qqiz bolani tug‘ib katta qilgach, barchasini mustaqil hayotga qo‘yib yuborgan ona haqida ko‘rsatuv bo‘ldi.

Ona hali tetik, ikki-uch oyda bir keladigan farzandlari haqida mamnun so‘zlaydi. Biroq qirqqa kirib ham turmush qurmagan qizi yilda bir kelarkan. Ko‘rsatuv bahona yig‘ilishibdi. Ona quvonchdan yal-yal yonadi. Qo‘li qo‘liga tegmay ovqatga unnaydi. Ellikka kirgan o‘g‘ilning na xotini, na bolalari yordamlashay demaydi... Bu yoqda uka-singillar ovqatning pishishini sabrsizlik bilan kutadi. Onaning yelkalari chiqib, xiyol enkayib qolgan. “Bolalarni tun-u kun yelkamda ko‘tarib yurardim, u paytlar qiyin edi. Zamon ishlamaganimizga qo‘ymasdi, bolalarning qorni to‘q, usti but bo‘lishi uchun kecha-yu kunduz ishlashimiz kerak edi”, deydi ayol jilmayib.

O‘g‘ildan sado chiqmaydi. Qiz indamaydi. Ular ko‘rsatuv sharti bo‘yicha onasi pishirgan taomdan yeb, bolaligini eslashi kerak ekan. Aslida ham shu uchun kelishgan. Ona uch-to‘rt xil taom tayyorlaydi, bolalarining ikkitasi ish sabab kelolmabdi. “Qoyil-ey...” deyman achchiq bilan.

Farzandlarining nimani yaxshi ko‘rishi haqida to‘lqinlanib gapirarkan, ona bechoraning nimani yaxshi ko‘rishi haqida hech kim og‘iz ochmagani jahlimni chiqaradi.



– Shuncha bola tug‘ib katta qilsang-u... – deyman o‘zimni zo‘rg‘a bosishga urinib.

– Nega asabiylashasan, bu hayot, unda har turli kishilar bo‘ladi, – deydi dugonam xotirjam.

– O‘zing o‘ylab ko‘r, axir, ona... – hamon achchig‘imdan tusholmayman.

– Aytyapti-ku, pul yuborib turamiz deb, – deydi dugonam televizorga ishora qilib.

– Pul o‘lsin, – deyman so‘ng boshimni egaman.

Yuragim uvishadi. Onamni sog‘inib ketaman.

Kunora telefonlashamiz.

– Nilu, qizim, yaxshi yuribsanmi? Qachon kelasan?

Bu savol onamnimas, ko‘proq meni qiynaydi. O‘qish iyunning yigirma beshinchisida tugaydi, chiptani yigirma yettisiga olganman.

Onam emas, men kun sanayman. Shunchalar yaxshi ko‘ramanmi? Meni onam tomon tortib turgan nima u? Tushunmayman.

***

Onamning o‘gay ekanini bilganimda qay ahvolga tushganimni so‘zlab berishim qiyin. O‘shanda o‘n yashar qizcha edim, ukam endigina maktabga bora boshlagan paytlar... U sho‘x edi, bir yerda turmasdi. Goho piyolani sindirib qo‘yar, gohida divanning ustiga chiqib sakrardi. Oyog‘i singan stul uchun ham, darz ketgan kosa uchun ham men kaltak yerdim. Bir kuni chidolmadim.

– Nega meni urishasiz, ukamga indamaysiz-ku? Men o‘gaymanmi? – dedim.

Bu so‘z tilimga qaerdan yopishganini bilmayman.

– Ha, – dedi onam. – Sen o‘gaysan, – dedi yovqarash qilib. – Bilasanmi, nega seni uraman, alamimni olaman, mana bular uchun, – dedi u yengini shimarib bilagidagi ko‘kish izlarni ko‘rsatarkan. – Har bittasi uchun javob berasan hali.

Onam qo‘l-oyoqlarida har zamon paydo bo‘lib qoladigan bu izlarga avval e‘tibor berib qaramagan ekanman.

Qotib qoldim. So‘ng yig‘lagim keldi. Uydan qochib chiqdim. Uyimiz orqasidagi qarovsiz dalalarni birma-bir ortda qoldirib chopdim. Bu dunyoda yolg‘iz qolgandek edim. Hech kimi yo‘q yetim edim go‘yo. Bilmadim qancha chopdim, qancha yugurdim. Nihoyat, katta bir ariq bo‘yida to‘xtadim. Shataloq otib oqayotgan beg‘ubor suvga qarab qancha o‘tirdim, bilmayman. Tizzalarimni quchib uzoq o‘yladim. Yig‘ladim, ko‘zyoshla-



rim suvga qo‘shilib oqdi. Yuzimni chayib o‘rnimdan turganimda quyosh shafaqqa bosh qo‘yayotgan, osmon qizg‘ish tus olgan bir payt edi.

Ortimga qaradim. Qaytishga qaror qilgandim. Meni urishsa ham, ursa ham mayli. Onasiz qolmasam bo‘lgani. Balki o‘gay onam badanidagi ko‘kish izlar yana ko‘payishini istamagandirman.

Darvoza oldida onam ilhaq turardi. Paypoqchan, yalangoyoq... Boshidagi ro‘moli silliqib, sal nariga tushib qolgan, tushganini-da sezmagan... U meni ko‘rib hayron qoldi, biroq hech nima demadi. Ko‘zlarida yosh ko‘rganday edim.

Shundan keyin meni boshqa urushmay qo‘ydi. Ukam yomon ish qilsa, chidardi, tishlarini tishlariga bosganida g‘ijirlab ketar, yomon qarar, biroq urmasdi.

Qaysidir kun yodimga tushib, onam bilagidan ko‘kish izlarni qidirdim, topolmadim.

***

Ko‘rsatuv tugay, deydi. Bolalar qorni to‘yib, ko‘chaga chiqishadi. Lash-lushlarini mashinalariga ortishadi. Ona ikkita tuguncha ko‘tarib chiqadi, kelolmagan bolalariga ovqat berib yuboradi. Ona bolalari bilan qo‘l siltab xayrlasharkan, ajin bosgan, bug‘doyrang, qadoq qo‘llari bilan mijjalarini siypalaydi. Kameraga qarab turib “sog‘inaman-da”, deydi mung‘ayibgina.

Ko‘rsatuv xodimlari uchrashuvga kelmagan o‘g‘illarni izlab yo‘lga tushishadi. Topib boradi, katta-katta, kengu mo‘l uylar...

– Nahot bir burchagiga onang sig‘maydi? – deyman yana jahlim chiqib.

Bu gal dugonam ham indamaydi.

O‘g‘il onasining ovqat berib yuborganidan suyunib qo‘yadi. Bir qoshiq ichadi, so‘ng onasini maqtaydi. “Onamning ovqatlarini ko‘p sog‘inaman. Onam shirin ovqat qilardi...”.

So‘ng telefon orqali onasi bilan suhbat quradi. Rahmat, aytadi.

– O‘l-a, bu kuningdan! – deyman o‘zimni tutolmay.





Ko‘rsatuvni oxirigacha ko‘rolmayman. Bardoshim yetmaydi. So‘ng dugonamdan so‘rab olaman. Istamaygina aytadi u ham:

– Shu... o‘zing ko‘rding-ku... Onasi men hayotga kelib ko‘rganim quvonchim shular. Farzandlarim baxtidan quvonaman, ularning katta ishlarda ishlayotganini eshitib suyunaman dedi.

***

Erta tongda yana o‘qishga shoshilarkanman, ko‘zlarim atrofga olazarak boqar, ehtimol, kimnidir izlardi. Biroq bugun negadir u ayolni ko‘rmadim. Metrodan chiqaverishda, chapdan o‘n qadamcha narida stoli va ustiga to‘nkarib qo‘yilgan stuli turar, belidan arqon bilan tang‘ib qo‘yilgandi. Hayron bo‘ldimu parvo qilmay o‘tib ketdim. Keyin imtihonlar bilan bo‘lib, esimdan chiqibdi. Biror ikki haftacha ko‘rmadim, shekilli. Yana bilmadim.

Qaysidir kun metrodan hovliqib chiqdim. Metroning shundoq chiqaverishida, to‘singa suyangancha bir ayol o‘tirardi, ikki bukilib olgan... Egnida eski, kir palto, boshida qora shapka, titilib ketgan shim kiyib olgan, oyog‘ida almisoqdan qolgan etik. Sal narida mayda-chuyda solingan aravachasi do‘ppayib turar, o‘zi esa musichadek ko‘zlarini bir ochib, bir yumib behol o‘tirardi. Oldidagi kichkina idishchada esa bitta yuz vonlik tanga turardi.

Unga bir qaradim, xolos. Doimgidek shoshilayotgandim. O‘n qadamcha yurdim. Ayol mayda-chuyda qo‘yib savdo qiladigan stol qiyshayib qolgan, stul esa yer bilan bitta bo‘lib sinib yotardi. Nima bo‘lganini tushunmadim. Taxmin qildim, xolos. Biror mast-alastning ishi bu.

Oradan kunlar o‘tdi. Endi bu manzara har kuni shu zaylda bir xil davom etardi. Ayol metrodan chiqaverishda suyanibgina o‘tirar, oldidagi idishda bir dona tanga yotar, sal narida mayda-chuyda solingan aravacha mung‘ayib turardi. Endi quyosh qizdiradigan kunlar yaqin, biroq ayolning egnidagi kir palto hanuz yechilmagan.

***

O‘qituvchimiz bir gal onasini xor qilib tashlab ketadigan farzandlar haqida gapirib qoldi.

– Qariyalar uyiga joylash uchun pul kerak-da, shu uchun ham onasini ko‘cha-ko‘yda qoldirib ketadiganlar ko‘p, – dedim g‘amgin bosh egib.

– Bir gal aylangani boramiz, deb aldab onasini aeroport ichida qoldirib ketgan o‘g‘il kameralar sabab fosh bo‘lib qolgan ekan, – dedi dugonam.

Qaytish fursati yaqin. Oxirgi marta universitetga yo‘l olgan kunim. Doimgidek metro oldida o‘sha ayolni uchrataman, deb o‘ylagandim. Bir-ikki so‘m orttirganim bor edi... Biroq uni topolmadim. Bir chekkada aravachasiyu tanga solingan idishi turar, o‘zi esa yo‘q edi.

Raxshona AHMEDOVA

BITIRUVCHIDAN TASHAKKURNOMA

YOXUD AMIR OLIMXON AVLODI EMASMAN



Doim biror gap aytsam, tarmoqqa post joylasam yoki izoh yozsam, garchi u yaxshi niyatda bildirilgan fikr bo‘lsa-da, negadir darrov salbiy baholanadi. Nedurki, men xato gapirgan, noto‘g‘ri fikrlagan va yoki kimningdir dumini bosgan bo‘lib chiqaman. Ammo zora bu safar boshqacharoq bo‘lsa... Har holda, bu post tashakkurnoma. Minnatdorlik posti. Undan boshqa hech narsa emas.

O‘zi kishi unga qilingan yaxshiliklar uchun albatta minnatdorlik bildirishi kerak. Shu niyatda O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida o‘tgan to‘rt yil davomida olgan eng katta saboqlarim uchun atoqlab minnatdorlik bildirmoqchiman.

Juda tarbiyali bo'lishni universitet "ota"sidan o`rgandim





1

Universitetda o‘qishni boshlagan ilk kunlarimdanoq talabaga xos to‘g‘ri kiyinish madaniyati o‘rgatildi. To‘g‘risi, bu men uchun yangilik emasdi. Chunki maktabda o‘qigan kezlarimda ham bo‘ynimda bo‘yinbog‘, egnimda klassik kostyum bilan, ya’ni dress-kodga amal qilib yurganman. Ammo universitetda bu odatim yanada mustahkamlandi. (O‘zJOKU (forma) masalasida ijtimoiy tarmoqdagi shov-shuvlar chog‘ida ham ixtiyoran galstukda edim.) BUNING UCHUN TASHKILOTCHILARGA RAHMAT!

JAVOB REKTORGA RAHMAT!

2

O‘qishga kirib, hali universitet tugul Toshkent ostonasidan ham birinchi marta xatlab kirib kelgan kichkina kurs talabalariga universitet rahbariyati yig‘ilish qilgani esimda. Yotoqxonaga joylashtirish, ijaraga uy topish, yana hujjat ishlari, kabi ancha daxmazani ham ustozlar zimmasiga olgan. Guruh sardori bo‘lganim uchun bu boshog‘riq yumushlarning bir qismiga guvoh bo‘lganman. Garchi talabaning qachon, qayerda qolishiga universitet javobgar bo‘lmasa-da, ularga imkon qadar qo‘l uzatgani uchun va shu barobarida “ko‘chada qoldim”, deb hammaga diydiyo qilmaslik, muammo bo‘lsa, avval guruh sardoriga, u orqali zamdekanga, keyin esa u orqali dekanga murojaat qilish kerakligini, biz bitta oila ekanimizni, muommolarimiz oilamizdan nariroqqa chiqishi kerakmasligini o‘rgatib qo‘ygani uchun ham TASHABBUSKORLARGA alohida TASHAKKUR. (O‘zJOKUning bir talabasi kvartiramdan haydalib, kechasi ko‘chada qoldim degan mazmundagi videosi ijtimoiy tarmoqda tarqalganda ham men galstukda edim).



3

Qaysi yil edi, yodimda yo‘q. Lekin voqea aniq esimda. Bir umr unutilmaydi ham. Xullas, kreditga qolgan fanimdan bir kursdoshim va men tanimagan uch nafar talaba qiz universitet hovlisida konspekt yozib o‘tirgandik. Nariroqdan rektorimiz uch-to‘rt kishi bilan suhbatlashib yurib o‘tib qoldi. Salom berish barobarida avval qizlar, bir bahya keyin kursdoshim bilan men o‘rnimizdan qo‘zg‘aldik. Rektor alik olib o‘tib ketdi. Avval biz keyin qizlar, qaytib o‘rnashib, konspekt yozishda davom etdik.

Bir mahal rektor yurib o‘tib ketgan joyiga qaytib kelib, do‘stim ikkimizni oldiga chaqirdi. Bir chetga olib, kursdoshimning soqolini, talabaga xos bo‘lmagan kiyinishini gapirdi. So‘ng mening ko‘zimga tikilib:

– Sen Amir Olimxonning avlodimisan? – deb so‘rab qoldi.

– Yo‘q, ustoz. Nega?! – hayratlanib so‘radim. Keyin bilsam, unga o‘tirib olib salom beribman.

– Axir sunnatda... – deb endigina og‘iz juftlaganimni bilaman rektorimning kafti bo‘ynimning orqasiga, ensam aralash qo‘ndi. Unga aqllilik qilmasligimni, ota o‘tirgan uy tomiga chiqilmasligini, u kishi universitet otasi ekani va unga har qachon lutfan, otaday hurmat qilib salom berish kerak ekanligini o‘rgandim. Qayergadir bu tarbiya bilan borsam, otangga la’nat deyilsa, o‘sha la’nat rektor janoblariga

ham kelishini bilib oldim. Juda tarbiyali bo‘lishni 5-6 ming talabasi bor universitet “ota”sidan o‘rgandim. Hozir rostdan ham o‘zimdan o‘n yosh kichkina kishiga ham: “Assalomu alaykum”, deb salom beraman. Aldasam, bilganlar aytsin.

Birinchi sinfdayoq o‘rgangan salom berish odobini ikkinchi kursda yana bir bor o‘rgatib qo‘ygani uchun JANOB REKTORGA RAHMAT.

4

O‘qish davrida kallavaramlik qilib, bir-ikki ustozning darsidan, munosabatidan qanoatlanmay, yana turli sabablar bilan darslarini qoldirdim. NBlarim ko‘payib, “qizil” ro‘yxatga tushdim, akademik qarzlarim ham ko‘payib qolgandi. Hammasini 4-kurs yakunida to‘lab, qayta o‘qib yopishimga to‘g‘ri keldi. Bundan bildimki, har qachon, har qanday holatda ham besabab dars qoldirmaslik, muhimi, NB olmaslik zarur. Yo‘qsa, men kabi yil so‘ngidagina emas, universitetni bitirish arafasida filning kallasiday pul to‘laysiz. Hatto shartnomada ko‘rsatilgan summani to‘lab, cheklarini ko‘rsatib, fanlarni qayta o‘qib, baholarni olgandan keyin ham “baza”dagi xatolik bilan tag‘in kredit qarzdorligi chiqib qolishi mumkin. Ammo shu qarzlarni to‘lab bo‘lganimni isbotlayman deb, qayta-qayta qarz va to‘lov summasi, har bir fan krediti bahosini hisoblay-hisoblay matematikani ham tag‘in takrorlab oldim.

Yil so‘ngida men universitet hisobxonasi hisobchilari hisobidan 84 ming so‘m yanglish chiqardim. Baribir ular haq edi, axir ular shuning mutaxassisi edi. Mutaxassis bilan bahslashmaslikni o‘rgatib qo‘ygan HISOBCHILARGA RAHMAT.



Universitetimdan faqat yaxshi narsalarni o`rgandim, yomonini ko`chadan orttirgandirman

5

Mana, nihoyat hamma fanlardan baholarni oldim. Endi faqat BMI himoyasini yaxshi topshirsam bas, deb yurgandim. Diplom ishimni mavzum doirasida yozib, taxt qilib, endi BMI himoyasiga kirish kunim kelganda, mening BMI mavzum tasdiqlanishi va menga ilmiy rahbar tayinlash uchun yozgan arizam yo‘qolgani ayon bo‘ldi. Tasavvur qiling, avvaliga men ariza bermagan sanaldim. Xayriyatki, arizamni imzolab bergan ilmiy rahbarim bor ekan.

Xullas, ming talaba o‘z o‘rnida, bir ming birinchi Diyorning arizasi paqqos yo‘q. Uni BMI himoyasiga kirishiga ruxsat yo‘q. Qarabsizki, hali kafedra mudiriga, hali dekanga yugurib, rosa uch kun deganda BMI himoyasiga kirishga ruxsat oldim. Kafedra mudirining xushmuomalaligi, dekanimning ensasi qotmay men uchun qayta buyruq shakllantirishga hafsalasi haqida gapirmay qo‘ya qolay. Ajoyib bo‘ldi.

Har bir talaba ishiga mas’uliyat bilan yondashganlari uchun ULARGA va dekanat hamda kafedramdagilarga RAHMAT.

6

Bakalavr malakaviy ishimni o‘qib, yo gapirib bermadim zo‘r ishtiyoq bilan sayrab berdim. A’zolar tomonidan berilgan savollarga bilganim qadar javob berdim. Bahom – “5”. Baholar e’lon qilinganda tanigichlar video qilib olishdi. Darrov tarmoqda maqtandim. Maqtanarli BAHO QO‘YGANLAR va uni olgunimcha sochi oqargan ILMIY RAHBARIMGA RAHMAT!

Bahomni to`g`rilamadi, desam, to`rt yil tuzini yeb, tuzlig`iga tupurgan bo`lib qolmaymanmi?



7

18-iyul kuni bitiruvchilarga diplom topshirish marosimi bo‘ldi. Unda, jumladan, kursdoshlarim diplomlarini ushlab ko‘rishdi. Uni shaxsan rektorimiz qo‘lidan qabul qilib olishdi va “hayotida bir marta bo‘ladigan tarixiy voqea”da qatnashdilar. Bu mahalda men uyimda ko‘k choy ichib, “Botqoq” qissamni yozishda davom etayotgandim. “Tantanali diplom topshirish marosimi” bo‘layotgan vaqtda u tarmoqqa uzatildimi, televizorda chiqdimi, bilmayman, bir qancha telefonlar keldi. Tarixiy lahzalar garchi qatnashmasamda, menga ham tatidi. Instagramdan videolar jo‘natishib, tanish-bilishlar meni ham diplom bilan tabrikladi. Shunday tabriklarga sababchi bo‘lgan “BITIRUV–2026” TASHKILOTCHILARIGA TASHAKKUR.

8

O‘sha tantanali topshirilgan diplomlar keyin yana yig‘ib olinib, universitetga olib ketilgan. Albatta, u yoqda rasmiylashtirish ishlari, yana qandaydir muhim yumushlar qolgan bo‘lsa kerak. Balki men kabi kechiktiruvchi daxmazalar sabab kechikkan ishlar ham bordir. Ha, aytganча, mening diplomim hamon o‘sha yoqda. Axir boya aytgan “5” bo‘lmasa “4” bilan ham tayyorlab beraqolishsa... Darvoqe, bu mashmashalar tugagach, qayta eslash niyatim yo‘q edi. Lekin shu bahoni aslicha qo‘yib berishlarini so‘rab prorektorimga sim qoqganimda, u kishining bir og‘iz: “Labbay”, deb javob berganini aytmasam bo‘lmaydi.

"Bahom to'rt bo'lsayam, hayotim besh bo'lsin!"

Avval fakultetim dekani, keyin esa prorektor bo'lgan Ravshan akani doim so'zining ustidan chiqadigan inson sifatida hurmat qilaman. Shu baho masalasida ham telefon qilganimda:

– Ha, Diyorjon. Siz axir shoirsiz, aqlli odamsiz. Vaqtingizni ayamay kelsangiz, hal qilamiz, – dedilar. Bu munosabatdan boshim ko'kka yetdi. Ishdan chiqib, uning huzuriga uchib bordim. Hammasini eshitib, tushungan Ravshan aka bir gap bilan barini hal qilgan bo'ldi. Garchi bu haqda menga hech narsa demagan bo'lsalar-da, o'sha yerning o'zida yana birinchi kursda o'rgatilgan bir saboq yodimga tushdi: muammoni quyi bo'g'indan boshlab – starosta, tyutor, zamdekan, dekan orqali hal qilish etikasini buzganimni tushundim. Men esa dekan qolib, zamdekandan o'tib, to'g'ri Ravshan akaga murojaat qilganimni o'ylab, ichimda mulzam bo'lib yer chizdim. Ammo o'ziga aytganimdek "Iltimos so'zim ikki, to'rt yil umrim to'rt bo'lmadi". Har bir talabani beminnat qabul qiladigan, bir so'rovdan "LABBAY", deb javob beradigan PROREKTORIMGA RAHMAT!

9

Avval boshda aytganimday, bular mening minnatdorliklarim. Birovga adovat-u xusumatim yo'q. Barchasi uchun hammaga rahmat. O'sha bahom masalasida men biryo'la yuqoriroqqa murojaat qilmoqchi edim, ammo o'zi bu yoqdayoq hal qilinar ekan. Bir tomondan "Vazirga murojaat" qilish fikridan qaytganim ham to'g'ri bo'lgan ekan. Keyin tushunib qoldim: bir ballik shikoyatim oqibatida hech kim ishdan bo'shatilmay, hayfsan olmay, birov jabr ko'rmay ishim bitgani yaxshi emasmi?.. Albatta, yaxshi. Diplomimni ham eson-omon olaman. Mening ularga, ularning menga zarari tegmaydi. Birov norozi bo'lmaydi. Bahomni to'g'rilamadi, desam, to'rt yil tuzini yeb, tuzlig'iga tupurgan bo'lib qolmaymanmi?

Aytishganidek: "Bahom to'rt bo'lsayam, hayotim besh bo'lsin!" Menga buni o'rgatganlarning BARISIGA RAHMAT!



***

Yozsam yozaverarkanman-da, yetar endi.

Muxtasar qilib aytganda, men universitetimdan ko'p narsa o'rgandim. Faqat yaxshi narsalarni o'rgandim, yomonini ko'chadan orttirgandirman. To'rt yil umrimda men bilan bo'lgan butun universitetim jamoasiga qo'lim ko'ksimda chin dildan rahmat aytaman.

P.s. O'ylaymanki, diplomimni el qatori shu kunlarda qo'lga olaman. Tabriklashingiz mumkin.

Hurmat bilan,

Diyor RAHMON

“Siyosatchi bo‘lish uchun “VAZNIM” yetmadi...”

Tomas LERER:

* * *

Daromad solig‘i deklaratsiyamdagi 1040-shaklda: “Agar ko‘r bo‘lsangiz, bu katakka belgi qo‘ying”, deb yozilgan. Men esa belgini undan taxminan yetti-sakkiz santimetr nariga qo‘ygim keldi.

* * *

Men kollejda o‘qigan kezlarim qiz bolaning oldida aytib bo‘lmaydigan ayrim so‘zlar bor edi. Hozir o‘sha so‘zlarni aytish mumkin, ammo “qiz” so‘zini aytish mumkin emas.

* * *

Agar odam “men hech kim bilan til topisha olmayman”, deb o‘ylasa, hech bo‘lmaganda, bu haqida ham og‘zini ochmagani ma’qul.

* * *

Yomon ob-havo deraza ortidan qaralganda doimo yanada yomonroq ko‘rinadi.

* * *

Armiya Amerikadagi tenglik g‘oyasini mantiqiy nihoyasiga yetkazdi: u yerda odamlar nafaqat irqi, e’tiqodi va teri rangiga qarab, balki qobiliyatiga qarab ham ajratilmaydi.

* * *

Men ulg‘ayib, yetuk bo‘lish bosqichini chetlab o‘tmoqchi edim, shu bois o‘smirlikdan to‘g‘ri qarilikdagi parishonlikka o‘tib qoldim.

* * *

Sakkizlik sanoq tizimida sanash ham o‘nlik sanoq tizimida sanashga o‘xshaydi – faqat bosh barmoqlaringizni ishlatmasangiz bas.

* * *

Motsart mening hozirgi yoshimda bo‘lganida, allaqachon vafot etganiga bir yil bo‘lardi, deb o‘ylash kishini hushyor torttiradi.

* * *


Men o‘zimni targ‘ib qilishga yoki mutlaqo begona odamlarga o‘zim haqimda biror narsa oshkor etishga qiziqmayman. Bu mening ishim emas.

* * *

Men kabi ommaviy kasbda ishlab, keyin birdan faoliyatingizni to‘xtatsangiz, odamlar sizni yo aqldan ozgan, yo o‘lgan deb o‘ylashadi.



Artur BUCHVALD:



* * *

Sakson yoshni shunday nishonlashning o‘zi ajoyib ekan... Men aslida yana oltmish besh yoshda bo‘lishni xohlardim, ammo bunga ruxsat berishmadi — Immigratsiya va chegara xavfsizligi xizmati.

* * *

Televideniyening eng katta muammosi shuki, gazetadagidek ko‘zga tashlanmaydigan ichki sahifalari yo‘q.

* * *

Haqiqiy yozuvchi sifatida tan olinishi uchun yumoristni avvalo jiddiy qabul qilishlari kerak.

* * *

Bu zamon eng yaxshi davr bo‘ladimi yoki eng yomoni — baribir imkonimizdagi yagona vaqt shu.

* * *

Har safar televideniye bundan ham tubanlasholmaydi, deb o‘ylaganingizda, yana bir yangi dastur chiqib, avvalgi “eng tuban daraja”ni qanday belgilaganingizni ham unuttiradi.

* * *

Soliq islohoti degani ilgari soliq solingan narsalardan soliqni olib tashlab, ilgari soliq solinmagan narsalarga soliq solishdir.

* * *

Bugungi kunda endi hech narsani o‘ylab topishga hojat yo‘q. Dunyoning o‘zi satiraga aylangan. Biz esa shunchaki uni qayd etib boramiz.

* * *

Men doim siyosatga kirishni xohlardim, ammo ularning jamoasiga qabul qilinish uchun “vaznim” to‘g‘ri kelmas ekan.

* * *

Saylovoldi kampaniyasida biror nomzodning televizor kamerasi qarshisida milliarder bilan suhbatlashayotganini ko‘rganmisiz?

* * *

Mavjud tuzumni uzoq va qat’iy tanqid qilsangiz, oxir-oqibat tuzumboshilar sizni o‘z safiga qo‘shib oladi.

...urush qilishga ham tayyor edi... albatta, g‘alaba qozonishimizga ishonchi komil bo‘lsa.

Sara KUPER:

* * *

Jonga tekkan hamkasblar bilan kurashishning ko‘plab usullari bor. Lekin eng samaralisi — ularni reper sifatida tasavvur qilish. Shunda kulging keladi, qolaversa, orqasidan gapirganda ishlatadigan qulay laqab ham topiladi.

* * *

Bugungi shiddatli biznes dunyosida ayol rahbarlar odamlar ularni haddan tashqari qat’iy, tajovuzkor yoki, eng yomoni, malakali deb o‘ylab qolmasligiga e’tibor berishlari kerak. Buning uchun ular ba’zan o‘z rahbarlik uslubini erkaklarning nozik g‘ururiga moslashtirishlariga to‘g‘ri keladi.

* * *

Men ishlarni bitirishni juda yaxshi ko‘raman. Shuning uchun har kuni bir necha soatni samaradorlik haqidagi maqolalarni o‘qishga sarflayman. Kun oxirida esa ulgurmagan maqolalarimni keyinroq o‘qish uchun saqlab qo‘yaman. Bu usulni ham samaradorlik haqidagi maqolalardan biridan o‘rganganman.

* * *

Odamlar o‘zini o‘zi masxara qiladigan hazilni yaxshi ko‘rishadi.

* * *

Ofisning bayram kechasiga hech qachon, mutlaqo hech qachon o‘z vaqtida bormang.

* * *

Yig‘ilish oxirida: “Hamma bir joyda bo‘lganida yana muhokama qilib olamiz”, deb aytishdan ortiq yig‘ilishni mazmunli ko‘rsatadigan narsa yo‘q.

* * *

Birovni noto‘g‘ri ism bilan chaqirishdan uyatliroq narsa yo‘q. Ammo uning ismini bilmasangiz ham, biladigandek ko‘rinishga urinish undan ham qiyin.

* * *

Nashriyotga g‘oyangizni sotishdan ko‘ra, auditoriyangizni sotish qimmatroq.

* * *

Bolaligimda yangi narsalarni o‘rganishni juda yaxshi ko‘rardim... to o‘rganishning o‘ziga navbat kelguncha.

* * *

Muhandislarning ko‘ngliga yo‘l topishning eng tez usullaridan biri — mahsulot menejerlari ustidan kulish.



Izoh berilgan hazildan yomonroq narsa yo‘q.



Garry TRUDEAU:

* * *

Bitiruv marosimidagi nutqlar, chamasi, universitetni bitirayotgan talabalarni dunyoga qo‘yib yuborishdan oldin ularni yaxshilab “tinchlantirib olish” kerak, degan ishonch tufayli o‘ylab topilgan.

* * *

Yozuvchilarning ishi shunday: qahramon yaratadilar, keyin boshqalarning ko‘ngli uchun ularning boshiga har xil kulfatlarni yog‘diradilar. Agar vijdonlari qiynalib qolsa, oxirida baxtli yakun yozib qo‘yishadi.

* * *

Mojaro har qanday biznes uchun foydali. Ayniqsa biznesingiz satira bo‘lsa.

* * *

Tibbiy qarorlar siyosatlashtirib yuborildi. Qaysi shifokor qabulxonasida deputat o‘tirishini istaydi?

* * *

Internetga kirib odamlar siz haqingizda nima yozayotganini o‘qish xavfli. Yaxshi gaplarni ham topasiz, ammo kayfiyatingizni buzadigan gaplarni ham. Nega bunday azobni o‘zingiz qidirishingiz kerak?



Karl KIASEN:

* * *

Korporativ kabinetlarda men o‘zimga do‘st orttirmasligim aniq.

* * *

Hech bir siyosatchi aytmaydigan bitta so‘z bor: “yetar.” Bas, yetar.

* * *

Biz doim kino yulduzlari va qo‘shiqchilarga qiziqqanmiz. Lekin aslida jamiyatga hech narsa bera olmaydigan odamlarga bunchalik mahliyo bo‘lish bu — telbavor hodisa.

* * *

Yozuvchi uchun eng katta gunoh — zerikarli bo‘lish.

* * *

Mening kuzatishimcha, siyosatchilar ustidan kulishsa, bundan ularga nasihat qilish yoki minbardan baqirishdan ko‘ra ko‘proq noqulay bo‘ladi. Ular masxara nishoniga aylanishdan ko‘proq bezovtalanishadi.

* * *

Men odamlarni kuldirishni doim yaxshi ko‘rganman. Lekin kulgili bo‘lishim uchun avval nimadandir jahlim chiqishi kerak.

"Farz"dan QARZMIZ



So‘nggi yillarda kinematografiyada tomoshabinni mulohaza qilishga, ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilishga qaratilgan filmlar ortib bormoqda. Bu kabi filmlarning tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olinayotgani 2024-yilda qirg‘iz rejissyori Ruslan Akun tomonidan suratga olingan “Jannat onalar oyog‘i ostida” filmining tez fursatda ommalashib, tomoshabinlar ko‘nglida joy olganidan ham yaqqol ko‘rindi. 2026-yilda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzu-










"Nega o`zimizda yaxshi kino chiqmayapti?" deb noliymiz, lekin...









ridagi Kinematografiya agentligi buyurtmasiga asosan suratga olingan "Farz" filmi mehr-oqibat, fidoyilik va haqiqat kabi umuminsoniy qadriyatlarni ochib bergan asar sifatida tomoshabinlarning muhokamalariga sabab bo'lmoqda. Filmda halol mehnat bilan kun kechiradigan Sobir akaning Haj safariga borish orzusi, insoniylik va saxovat yo'lida bu orzusidan kechishga majbur bo'lishi, qolaversa, tuhmat va adolatsizlikka qarshi kurashi tasvirlanadi.

Biroq bugungi axborot makonida filmning badiiy va ma'naviy qiymati ko'pincha uning mazmunidan ko'ra tez tarqalishi bilan o'lchanayotgandek. Premyeradan ko'p o'tmay ayrim filmlar Telegram kanallari, Facebook sahifalari va Instagram Reelslarda turli parchalar, qisqartirilgan lavhalar yoki hatto to'liq nusxalar ko'rinishida tarqala boshlaydi. Natijada tomoshabin asarni yaxlit film sifatida emas, alohida sahnalar yig'indisi sifatida qabul qiladi.

"Farz" filmi misolida ham shu masala dolzarb. Bir tomondan, milliy kino rivojlanishi, sifatli filmlar ko'payishini istaymiz. Ikkinchi tomondan esa, kinoteatrlarga endigina chiqqan yoki tomoshabinga yetib borishga ulgurmagan asarlarning ijtimoiy tarmoqlarda nazoratsiz tarqatilishiga befarq qaraymiz. Bu holat nafaqat mualliflik huquqlari, balki tomosha madaniyati va milliy kino rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada "Farz" filmi misolida film mazmuni va uning Telegram hamda boshqa ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishining ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilamiz.

"Farz" filmi – mazmuni, g'oyasi va qo'zg'atadigan hissiy og'irligi bilan oddiy ko'ngilochar mahsulot emas. Unda halol mehnat, sabr, yaxshilik, mehr-oqibat, tuhmatga qarshi kurash, inson sha'ni va adolat kabi jamiyat uchun juda muhim mavzular bor. Sobir aka timsolida biz ko'p uchraydigan, ammo ko'pincha e'tibordan chetda qoldiriladigan bir haqiqatni ko'ramiz: halol yashashga urinayotgan insonning sinovlari ba'zan moliyaviy qiyinchilikdan emas, balki atrofdagi odamlarning befarqligi, riyosi va hasadidan boshlanadi. Ana shunday syujet tomoshabinni o'ylantirishi, ichki dunyosiga kirib borishi, "yaxshilik" so'zining mohiyatiga qayta baho berishga majbur qilishi kerak.



Muammo shundaki, bugun bunday filmlar to‘liq asar sifatida emas, mayda bo‘laklarga bo‘linib yoki o‘rta tiniqlikda past sifatli shakllarda iste’mol qilinmoqda. Telegram kanallarida, Facebookda yoki Instagram Reelsda filmning eng ta’sirli sahnalari alohida kesib olinib, ustiga shoshma-shosharlik bilan yozuv qo‘yiladi, foniga ta’sirli musiqalar joylanadi va tamom. Tomoshabinda “mazmuni shu ekanda” degan taassurot paydo bo‘ladi. Aslida esa kino – sahnalar yig‘indisi emas, u avj nuqtasi, sokinlik, pauza, aktyor nigohi, musiqaning asta kirib kelishi va dramatik ketma-ketlik orqali ishlaydigan yaxlit tizimdir. Filmning bir-ikki daqiqalik parchasi ko‘rsatilsa, tomoshabinga uning ruhi emas, faqat tashqi qobig‘igina yetib boradi.

Shu nuqtada eng achinarli jihat ko‘zga tashlanadi: biz ko‘pincha “nega o‘zimizda yaxshi kino chiqmayapti?” deb noliymiz, lekin niholdek qad rostlayotgan filmning tomiriga o‘zimiz issiq suv quyamiz. Yaxshi kino – vaqt, mablag‘, ijodiy mehnat va ma’naviy mas’uliyat mahsuli. U hali auditoriya bilan to‘liq uchrashib ulgurmasidan turib, qisqa video formatdagi shov-shuvga aylantirilsa, norasmiy kanallarga mualliflik huquqini chetlab o‘tib joylansa, uning asl kuchi yo‘qoladi. Tomoshabin filmni kinoteatrda emas, qisqa lavhalar orqali “bilaman” degan xulosaga keladi. Bu esa asarning yashash yoshini qisqartiradi.

Telegram va ijtimoiy tarmoqlarda filmlarning tarqalishi faqat mualliflik huquqi muammosi emas. Bu – tomosha madaniyatining buzilishi. Bugun ko‘p kanal va sahifalar filmni tahlil qilish uchun emas, ko‘proq ko‘rishlar sonini oshirish uchun tarqatadi. Natijada asar ustidan muhokama emas, uning parchasi ustidan shovqin hosil bo‘ladi. Sahna kontekstdan uziladi, qahramonning sinovi tushuntirilmaydi, dramatik yo‘nalish yo‘qoladi. Tomoshabin esa voqeani to‘liq idrok etish o‘rniga, uni hissiy “skoop” sifatida qabul qiladi. Bu yondashuv ayniqsa “Farz” kabi ma’naviy qatlamga ega filmlar uchun xavflidir. Chunki

Norasmiy manbalarga “qani-qani” laversak, kino san’ati gullab-yashnamaydi

bunday asarlarning kuchi aynan chuqurlikda, sabab-oqibat zanjirida va ruhiy bosqichlarda namoyon bo‘ladi.

Yana bir tashvishli holat – odamlar ko‘pincha filmning to‘liq mazmunini ko‘rmasdan turib, u haqda hukm chiqarib qo‘yadi. Reelsdagi bir sahna, Telegramdagi bir parcha, Facebook’dagi bir post film haqida xulosa berib yuborish uchun yetarli bo‘lib qolgandek. Holbuki, badiiy asar parchada emas, butunlikda baholanadi. Bir epizod kulgili yoki ta’sirli ko‘ringani bilan, u butun filmning ma’nosini bermaydi. Aksincha, ko‘pincha filmning eng muhim joyi aynan kesilmagan, to‘liq ko‘rilgan, sabr bilan kuzatilgan lahzalarda ochiladi. Qisqa video madaniyati esa shu sabrni yemirib boraveradi, bora-bora diqqat jamlayolmaslik yoki qisqa diqqat sabab film o‘z ixlosmandlarini yo‘qotish xavfi ostida qoladi.

“Farz” filmining rasmiy tarzda 2026-yil 16-martdan Milliy kino san’ati saroyida namoyish etila boshlandi. Bu xuddi biror taomni aynan uning “vatani”da yeyish yoki shu taom bor boshqa mamlakat restoranida yeyishga o‘xshaydi. Kino ham o‘z muhitida ko‘rilganda ta’sirli bo‘ladi: u zal, ovoz, ekran, tanaffussiz oqim va tomoshabin diqqatini talab qiladi. Uni telefon ekraniga bularning barini sig‘dirish imkonsiz. Filmlarni smartfon ekranida ko‘rish mumkin, albatta, lekin uni bo‘lak-bo‘lak tarqatib, asl badiiy ta’sirini sindirish boshqa masala. “Bizda yaxshi kino kam”, “nega bizda yaxshi kinolar chiqmayapti?” degan shikoyat ko‘p. Ammo shunday filmlar paydo bo‘layotgan bir pallada ularni ommaviy ravishda mayda kontentga aylantirish, asarning o‘ziga emas, uning shov-shuviga ishlash – bu madaniy mas’uliyatsizlikdir.

“Farz” filmi misolida bir haqiqat yana bir bor ko‘rinadi: yaxshi kino faqat suratga olinishi bilan emas, to‘g‘ri qabul qilinishi bilan ham yashaydi. Agar biz uni to‘liq asar sifatida emas, Telegram, Facebook va Reels’dagi bo‘laklar orqali iste’mol qilsak, norasmiy manbalarga “qani-qani”laversak, kino san’ati emas, faqat kontent bozori “gullab-yashnaydi”. Sababi, qadrli filmning qadrini tushirayotgan ham aynan shu shoshqaloq iste’mol odatidir.

Niholni parvarish qilmasdan, undan katta daraxt kutish mumkin emas. “Farz” kabi filmlar esa aynan parvarish talab qiladigan nihollardir. Ularni himoya qilish – faqat ijodkorning emas, tomoshabinning ham burchi. Kino san’ati ham boshqa san’at turlari kabi qadrlangan joyda yashaydi, gurkurab, rivojlanadi.







Maftuna BAXTIYOROVA

Singapur Milliy Universiteti: Osiyoning ilm-fan va innovatsiyalar markazi

Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida dunyoning yetakchi universitetlari haqida so'z ketganda, ko'pchilik AQSh va Buyuk Britaniyadagi mashhur oliygohlarni tilga oladi. Biroq 21-asrda Osiyo ham jahon ta'lim markazlaridan biriga aylandi. Bu borada muvaffaqiyatga erishgan universitetlardan biri Singapur Milliy Universiteti hisoblanadi. SMU (Singapur Milliy Universiteti) ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, zamonaviy ta'lim tizimi va xalqaro hamkorlik bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari qatoriga kiradi. Universitetda tahsil olayotgan talabalar zamonaviy laboratoriyalar, kuchli professor-o'qituvchilar tarkibi hamda xalqaro darajadagi ta'lim muhiti tufayli nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tajribaga ham ega bo'ladilar. Bugungi kunda SMU bitiruvchilari Google, Microsoft, Apple, Amazon, Meta va boshqa ko'plab xalqaro kompaniyalarda faoliyat yuritmoqda. Shu sababli universitet har yili dunyoning turli mamlakatlaridan minglab iqtidorli yoshlarni o'ziga jalb qiladi.

Singapur Milliy Universitetining tarixi 1905-yildan boshlanadi. O'sha yili Singapurda Straits and Federated Malay States Government Medical School nomi ostida tibbiyot maktabi tashkil etildi. Dastlab bu ta'lim muassasasining asosiy vazifasi mintaqa uchun malakali shifokorlar tayyorlash bo'lgan. 1921-yilda kollej maqomini olgan bu muassasa 1980-yilga borib Singapur Milliy Universitetiga aylandi. Keyingi o'n yilliklarda Singapur hukumati universitet rivojiga milliardlab dollar investitsiya kiritdi. Ilmiy tadqiqotlar, zamonaviy kampuslar, laboratoriyalar va xalqaro hamkorlik dasturlari izchil rivojlantirildi.





Hozirgi kunda SMUda 40 mingdan ortiq talaba tahsil oladi. Ularning katta qismini bakalavr talabalari tashkil etsa-da, magistratura va doktorantura bosqichida ham minglab izlanuvchilar ilmiy faoliyat olib boradi. Universitetda 100 dan ortiq mamlakat fuqarolari ta'lim oladi. Xalqaro talabalar ulushi universitetning global nufuzini yaqqol namoyon etadi. Universitetda minglab professor, ilmiy xodim va tadqiqotchilar faoliyat yuritadi. Ular orasida dunyoga mashhur olimlar, muhandislar, iqtisodchilar, shifokorlar va huquqshunoslar bor. Ta'limning asosiy tili inglizcha.

SMU xalqaro universitet reytinglarida yuqori o'rinlarni egallab kelgan. QS World University Rankings 2026 reytingida universitet dunyoda 8-o'rinni egallagan. Kompyuter fanlari, sun'iy intellekt, muhandislik, biznes va menejment, kimyo, tibbiyot, huquq, arxitektura, data science yo'nalishlarida SMU dunyoning yetakchi universitetlari qatoridan joy olgan.

SMU ma'lum yo'nalishlarga ixtisoslashgan bir necha kampuslardan iborat. Universitet kampusi shunchaki dars o'tiladigan joy emas, balki ta'lim, ilmiy tadqiqot, sport, madaniyat va ijtimoiy hayot uyg'unlashgan zamonaviy shaharchadir. Asosiy Kent Ridge kampusi qariyb 150 gektar maydonni egallaydi. Kampus ichida fakultet binolari, ilmiy markazlar, kutubxonalar, laboratoriyalar, sport majmualari, talabalar turar joylari, kafelar, restoranlar, do'konlar va tibbiyot markazlari joylashgan. Talabalar kampus bo'ylab bepul ichki avtobuslar orqali harakatlanishlari mumkin.



Singapur universitetining muvaffaqiyati bir nechta muhim omillarga asoslanadi. Universitet ilmiy tadqiqotlarga juda katta mablag' ajratadi. Har yili minglab ilmiy loyihalar davlat va xususiy kompaniyalar tomonidan moliyalashtiriladi. Sanoat bilan uzviy hamkorlik qiladi. Google, Microsoft, NVIDIA, Amazon, Rolls-Royce, Dyson, Grab va boshqa yirik kompaniyalar universitet bilan qo'shma laboratoriyalar tashkil qilgan. Shuningdek, talabalar o'z biznes g'oyalarini universitet orqali rivojlantirish va investorlar bilan ishlash imkoniyatiga ega. Qolaversa, talabalar bir semestr yoki bir yil davomida dunyoning yuzlab hamkor universitetlarida tahsil olishlari mumkin.





Singapur milliy universiteti 17 ta fakultet va maktabni o‘z ichiga oladi. Ular muhandislik, elektrotexnika, tibbiyot, huquq, arxitektura, kompyuter ilmi va boshqa ko‘plab muhim sohalar bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalar berishga ixtisoslashgan. Maktab bitiruvchilari Google, Microsoft, Amazon, Apple, Meta va boshqa yirik texnologik kompaniyalarda ishlash imkoniyatiga ega.

Singapur milliy universiteti bakalavr bosqichida yuzlab ta’lim yo‘nalishlarini taklif etadi. O‘qish muddati odatda 4 yil. Tibbiyot va stomatologiya kabi yo‘nalishlarda 5–6 yil o‘qiladi. Magistratura SMUning eng kuchli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Dasturlar ikki turga bo‘linadi: Coursework Master’s (darslar, imtihonlar, loyiha ishlari – 1-2 yil) va Research Master’s (ilmiy tadqiqotga yo‘naltirilgan dastur. Bu PhD bosqichiga tayyorgarlik vazifasini ham bajaradi). Universitetda AI, robototexnika, biotexnologiya, kvant texnologiyalari, energetika, nanotexnologiya, tibbiyot, iqtisodiyot yo‘nalishlarida minglab doktorantlar tadqiqot olib boradi. Ko‘plab PhD talabalari to‘liq stipendiya bilan ta’minlanadi.

Magistratura uchun bakalavr diplomi kerak. Nomzod tan olingan universitetni tamomlagan bo‘lishi kerak. Rasmiy minimal GPA barcha dasturlar uchun bir xil belgilanmagan. Biroq amalda qabul qilingan talabalar odatda yuqori akademik natijalarga ega bo‘ladi. Raqobat kuchli bo‘lgan dasturlarda yuqori GPA ustunlik beradi. Dasturga qarab IELTS Academic yoki TOEFL iBT sertifikati talab qilinadi. Ko‘pgina magistratura dasturlari motivatsion xat, rezyume, tavsiyanoma, ish tajribasi kabilarni ham so‘rashi mumkin.

Universitet xalqaro talabalar uchun turli moliyaviy yordam dasturlarini taklif qiladi. Universitetning o‘z stipendiya dasturlari bo‘lib, ular akademik natijalari yuqori talabalarga beriladi. Bularga kontrakt to‘lovi, oylik stipendiya, ilmiy tadqiqot xarajatlarini qo‘llab-quvvatlash kiradi. Grant yutmagan, ammo moliyaviy yordamga muhtoj talabalar uchun ham kontrakt chegirmalari, bir martalik grantlar, foizsiz ta’lim kreditlari ham yo‘lga qo‘yiladi.







Universitetga qabul qilishlari uchun nafaqat yaxshi baholar, balki nomzodning umumiy salohiyati ham baholanadi. Qabul komissiyasi akademik natijalar, ingliz tilini bilish darajasi, motivatsion xat sifati, tavsiyanomalar, ilmiy yoki kasbiy yutuqlar, yetakchilik qobiliyati va tashabbuskorlik jihatlariga e'tibor qaratadi. Shu sabab kuchli GPA yoki IELTS natijasining o'zi har doim ham qabul uchun yetarli bo'lmaydi. Universitet Singapurning eng yirik akademik kutubxona tizimiga ega. Kutubxonalarida millionlab bosma va elektron manbalar mavjud. Talabalar, ilmiy jurnallar, elektron kitoblar, xalqaro ma'lumotlar bazalari, sun'iy intellekt va data science platformalaridan bepul foydalanishlari mumkin. Kutubxonalarning aksariyati kechgacha, imtihon davrida esa ayrimlari tun bo'yi ishlaydi. Universitet bitiruvchilari xalqaro mehnat bozorida yuqori baholanadi. Karyera markazi talabalarni amaliyot dasturlari, bo'sh ish o'rinlari, karyera yarmarkalari, rezyume tayyorlash, suhbatlarga tayyorgarlik bo'yicha qo'llab-quvvatlaydi. Ko'plab talabalar bitirishidan oldin ish takliflarini oladi.

Agar siz SMUda o'qishni maqsad qilgan bo'lsangiz, bakalavr bosqichida yuqori akademik natijalarni qo'lga kiritishingiz kerak. Ingliz tilingizni charxlab oling. Ilmiy loyihalar, olimpiadalar yoki ijtimoiy faoliyatda qatnashing. Kuchli motivatsion xat yozing. Tavsiyanomalarni oldindan rejalashtiring. Grant va stipendiyalarni muntazam kuzatib boring. Hujjatlar universitetning rasmiy qabul portali orqali yuklanadi. Ariza topshirilgach, universitet hujjatlarni tekshiradi. Ba'zi dasturlar suhbat ham o'tkazadi. Agar nomzod muvaffaqiyatli tanlansa, universitet rasmiy qabul xatini yuboradi. Shundan keyin o'qishni tasdiqlash, to'lovlar, talabalik vizasi va turar joy masalalari hal qilinadi.

SMUda kontrakt narxi tanlangan yo'nalishga qarab sezilarli farq qiladi. Bu taxminan, yiliga 30-50 ming AQSH dollari atrofida bo'lishi mumkin. Ayrim dasturlarda laboratoriya yoki qo'shimcha xizmatlar uchun alohida to'lovlar ham mavjud. O'qishdan tashqari, yashash xarajatlarini ham hisobga olish kerak. Bir oyda yotoqxona yoki turar joy: 450 –1200 dollar. Oziq-ovqat – 300–600 dollar; Transport – 60–110 dollar. Internet, telefon va boshqa xarajatlar – 80–200 dollar. Talabaning turmush tarziga qarab, umumiy oylik xarajatlar 1000-2000 dollar atrofida bo'lishi mumkin.

Singapur milliy universiteti ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishni istaydiganlar, sun'iy intellekt, IT va muhandislikka qiziqadiganlar, xalqaro kompaniyalarda ishlashni maqsad qilganlar, Osiyodagi biznes va innovatsiya muhitida tajriba orttirishni xohlovchilar uchun ayni muddao.



ASSASINLAR ASLIDA KIM BO‘LGAN?



Ko‘pchilik “Assasinlar” degan nomni eshitganda mobil va kompyuter o‘yinlarini eslaydi. Bu o‘yinni o‘ynamagan, eshitmagan tegdoshlarimiz bo‘lmasa kerak. Aslida esa assasinlar afsona yoki to‘qima qahramonlar emas, assasinlar real hayotda mavjud bo‘lgan. XII–XIII asrlarda Yaqin Sharqning bugungi Iroq va Eron hududlarida faoliyat yuritgan bu maxfiy tashkilot musulmon manbalarida Hashshoshiylar, Yevropa tarixida esa Assasinlar nomi bilan tilga olinadi. Ularning dovrug‘i shu qadar keng tarqalganki, hatto hukmdorlar, amaldorlar Yevropa qirollari, baronlarini bosh egdirgan Rim Papasi ham bu nomni eshitganda sergak tortgan. O‘z davrining eng sirli va mohir jangchilari sifatida tanilgan ushbu guruh haqida turli afsona va rivoyatlar yaratilgan. Xo‘sh, Hashshoshiylar kim edi? Ular qanday paydo bo‘lgan va nega tarixda shunchalik mashhur bo‘lib ketgan?

Assasinlarning paydo bo‘lishi

XI-XIII asrlarda hozirgi Eron, Suriya va Iroq hududida faoliyat yuritgan, siyosiy raqiblarini yo‘q qilish bilan nom chiqargan maxfiy tashkilot a’zolari Sharqda hashshoshiylar, G‘arbda esa assasinlar deb atalgan. Aslida harakatga asos solgan Hasan as-Sabboh (taxminan 1090–1124-yillarda yashagan) o‘z shogirdlarini “asasiyun” deya atagan. Arab tilida bu so‘z “muqaddas ishga yoki biror tizimning asoslariga sodiq bo‘lgan shaxslar”, degan ma’noni anglatadi.

Boshqa tarixchilar bu atamaning kelib chiqishini “hashshoshiyun” so‘zi bilan bog‘laydi, bu esa “hashish iste’mol qiluvchilar” degan ma’noni beradi. Livanlik yozuvchi Amin Maalouf Alamutdagi matnlarga asoslanib yozishicha, yevropaliklar “asassiyun” so‘zini noto‘g‘ri tushunib, “hashshoshiyun”, ya’ni “hashish iste’mol qiluvchilar” (arabcha “hashish” so‘zi kannabis (marixuana)dan olinadigan psixoaktiv moddaga nisbatan ishlatiladi) deb talqin etishgan. Yana aytilishicha, “hashshoshiyun” atamasi assasinlarni yomonotliq qilish uchun o‘ylab topilgan bo‘lishi ham mumkin.

Hasan Sabboh eng qudratli ikki dushmani – Abbosiylar va Saljuqiylar davlatini yo‘q qilishga bel bog‘laydi. O‘sha davrda bu ikki imperiyani to‘g‘ridan-to‘g‘ri jang qilish orqali yengish imkonsiz edi. Shu boisdan Hasan Sabboh bu davlatlarning o‘q tomiriga zarba berish uchun o‘limdan ham qo‘rqmaydigan, kuchli va yashinday tezkor qotillarni tarbiyalashga bel bog‘laydi.

U 1090-yilda o‘z atrofidagi bir nechta shogirdlari bilan G‘arbiy Eron hududida joylashgan Alamut qal’asini egallab oladi. Shundan boshlab Alamut qal’asi assasinlarning qarorgohiga aylanadi.



Ular qanday tayyorlangan?

Hashshoshiylar o‘z nishonlarini asosan xanjar, zahar yoki kamon o‘qi yordamida yo‘q qilishgan. Ularning usullari odatdagi harbiy harakatlardan tubdan farq qilgan. Assasinlar ochiq janglar o‘rniga kutilmagan joylarda – shahar markazida, tantanali yig‘ilishlarda yoki diniy marosimlarda amalga oshirilgan maqsadli qotilliklarni afzal ko‘rgan.

Hasan Sabboh asosan 12 yoshdan 20 yoshgacha bo‘lgan yosh yigitlarni tanlab olib, ularga jang san’atini o‘rgatib, jismonan chiniqtirgan. O‘rta asrlarning eng mashhur sayyoh, savdogar va yozuvchisi Marko Polo o‘zining xotiralarida hashshoshiylar suiqasdlarga qanday tayyorlanishi to‘g‘risida bayon etgan.



Unga ko‘ra, Sabboh Alamut qal’asida “Jannat” deb nomlangan bir bog‘ qurdirgan va o‘z shogirdlariga mast qiluvchi afyun chektirib, ularni uxlatib qo‘ygan. Muridlar bog‘da ko‘zlarini ochishgan hamda o‘zlarini xuddi Jannatga tushib qolgandek his etishgan. To‘rt-besh kun o‘tgach, ular yana ko‘knori yordamida uyquga ketkazilib, bog‘dan chiqarib yuborilgan.

Hasan Sabboh o‘z muridlariga u buyurgan ishni so‘zsiz bajarishsa, keyingi hayotlarida albatta ko‘zlari bilan ko‘rgan “jannat”ga tushishlarini va’da qilgan. Bu so‘zlarni eshitgan yigitlar haddan tashqari ruhlanib, o‘z hayotlarini ham fido qilishga tayyor bo‘lishgan. Shu tariqa Hasan Sabboh jangchilarni maxsus topshiriqlar bilan dushmanlarini o‘ldirishga yuborgan.

Salib yurishlari haqidagi eng muhim manbalardan hisoblangan “Sharq hukmdorlarining ishlari” va “Dengiz orti yurtlarida sodir bo‘lgan voqealar tarixi” asarlari muallifi Tirlik Uilyam hashshoshiylarni shunday tasvirlaydi:

“Ularning tog‘lik cholga (Hasan as-Sabboh) bo‘lgan itoatkorligi va sadoqati shunchalik kuchliki, har qanday qiyinchilik yoki og‘ir topshiriqni rad etmaydilar hamda eng xavfli vazifalarni ham hech ikkilanmay bajaradilar. Agar biror hukmdor yoki shahzoda bu jamoaning nafrati yoki ishonchsizligiga duch kelsa, boshliq o‘z izdoshlaridan biriga yoki bir nechtasiga xanjar tutqazadi. Tanlangan kimsalar qilmishining oqibatini yoki o‘z hayotini yo‘qotish ehtimolini o‘ylamasdan tezda belgilangan vazifani bajarish uchun yo‘lga chiqadilar”.



Nizom ul-Mulkning o‘ldirilishi

Hashshoshiylar o‘zlarining yagona imkoniyatidan foydalanish uchun qurbonni kerak bo‘lsa, 10-20 yil davomida kuzatgan. Ular hech qachon shoshqaloqlik bilan ish qilmagan. Assasinlar dushmanning ichiga kirib, ishonchli shaxsga aylana olgan. Hashshoshiylar o‘z o‘ljasini faqat xanjar orqali o‘ldirgan. Ularning ilk qurboni Saljuqiylar Bosh vaziri Nizom ul-Mulk (1018-1092) hisoblanadi.

Assasinlarning bir guruhi Hasan ibn as-Sabbohdan duo olib, Saljuqiylar poytaxti tomon harakatlandi. Ayrim tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, 1092-yil 10-dekabr kuni Hashshoshiy vakili Tohir Arroniy yashirin yo‘l bilan vazir saroyiga kirib, qishki bog‘da vazir Nizom ul-Mulkni zaharlangan pichoq bilan o‘ldiradi.

Boshqa tarixiy manbalarda yozilishicha, kunlarning birida Nizom ul-Mulk o‘z haramiga keta turib, yo‘lida uchragan qalandar (dunyo tashvishlaridan voz kechgan, daydib yuruvchi darvesh) ga salom berish uchun to‘xtaydi. Bu maxfiy qotillar vakili bo‘lib, to‘xtagan Bosh vazirni pichoqlab o‘ldiradi.

Saljuqiylar davlati Bosh vazirining o‘limi butun Islom olamida kuchli rezonansga sabab bo‘ldi. Hashshoshiylar Saljuqiy saroyiga shunday o‘rnashib oldiki, saroydagi barcha bir-biridan shubhalana boshladi.

Ba’zi tarixchilarning ta’kidlashicha, Saljuqiy sultoni Ahmad Sanjar Bosh vazirning o‘ldirilishidan so‘ng, Hashshoshiylar joylashgan Alamut qal’asi ustiga qo‘shin tortadi. Shunda Hasan as-Sabboh sulton Sanjarning huzuriga o‘z shogirdlaridan birini elchi qilib yuboradi. Sultonning chodiriga kirgan elchi, Hasan as-Sabbohning yuborgan xabarini yolg‘iz sulton Sanjarga aytishini bildiradi. Shunda chodirda faqat sulton Sanjar, uning ikki ishongan qo‘riqchisi va elchi qoladi. Elchi sultondan bu ikki qo‘riqchi nega chiqib ketmaganini so‘raydi. Shunda Ahmad Sanjar bu ikki askarga o‘z jonini omonat topshira oladigan darajada ishonishini aytadi. Elchi sultonga yuzlanib, “unda bu ikki askarga ayt, meni o‘ldirsin” deydi. Sulton qo‘riqchilarga elchini o‘ldirishni buyuradi. Lekin qo‘riqchilar joylaridan siljishmaydi. Shunda elchi ikki askarga sultonning bo‘g‘zidan olishni buyuradi. Bir qo‘riqchi sultonning qo‘lidan mahkam tutadi, ikkinchisi esa sulton Sanjarning bo‘g‘ziga Hashshoshiylarning xanjarini tiraydi. Elchi Sanjarga yaqinlashib, shunday deydi: “Hasan as-Sabboh senga shuni aytib yubordi: Eng ishongan odamlaring orasida ham bizning odamlar bor. O‘lishni istamasang, ortingga qaytib ket”.

Shundan so‘ng sulton Sanjar yurishni bekor qiladi. Hashoshiylarning uyushtirgan suiqasdlari tufayli Saljuqiylar davlati tanazzulga uchradi.

Qo`rquv va makr saltanati

Assasinlar o‘z dushmanlarida qo‘rquv uyg‘otish uchun jinoyat joyidan qochishmagan. Bu ularning o‘limdan qo‘rqmasligini ko‘rsatgan. Hashshoshiylar o‘lgach, to‘g‘ri jannatga tushishlariga ishonishgan.


Hasan ibn as-Sabboh Alamut qal’asida 75 yoshida vafot etdi. Lekin bu bilan Hashshoshiylar yo‘q bo‘lib ketmadi. Hashshoshiylar Hasan ibn Sabboh o‘lganidan so‘ng asosan uning avlodlari va izdoshlari uning ishlarini davom ettirishadi. Saljuqiylar davlati qulagach, Assasinlar uchun yangi bir dushman paydo bo‘ldi. Bu odam Salohiddin al-Ayyubiy edi. Salohiddin Misrni fath etgach, ismoiliy yo‘nalishini taqiqlab, unga e’tiqod qiluvchilarni qatl qildirdi. Bu paytda Hashshoshiylar rahbari Rashididdin Sinon edi. Ayyubiyning bu ishlaridan g‘azablangan Sinon Salohiddinga bir necha bor maktub yozib, bu ishlarni to‘xtashini so‘radi. Biroq Misr hukmdori Sinonning bu gaplarini rad etib, hozirgi Suriya hududidagi Hashshoshiylarning qal’asiga hujum qildi. Salohiddin al-Ayyubiyning qilgan ishlari uchun javob berish vaqt kelganini tushungan Rashididdin Sinon bir reja tuzadi. Ayrim tarixchilarning ta’kidlashicha, Salohiddin al-Ayyubiy bir kuni tongda uyg‘onsa, yonidagi xontaxtaga sanchib qo‘yilgan bir xanjarni ko‘radi. Xanjarning ostida bir parcha qog‘oz bo‘lib, unda shunday yozilgan edi:

“Bu xanjarni yuragingga sanchishimiz ham mumkin edi. Lekin sening o‘lishingni istamaymiz. Shuni bilki, ajal bizning qo‘limizda”. Chunki o‘sha vaqtda Salohiddin Islom dinining himoyachisi deb e’lon qilingandi. Assasinlar Misr hukmdori bilan kelishib, yagona dushman nasroniylarga qarshi kurash olib borishdi.

Ayrim tarixchilarga ko‘ra, G‘arbdagi nasroniy hukmdorlardan to Sharqdagi islom xalifalariga qadar o‘z jonlari uchun Assasinlarga tovon puli to‘lab turgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Hashshoshiylar oltita vazir, uchta xalifa, o‘nlab shahar hukmdorlari va ruhoniylarni hamda qirol Raymund II, Monferratlik Konrad kabi bir qancha Yevropa hukmdorlarini yo‘q qilishgan.

1250-yilda Chingizxonning nabirasi Halokuxon katta qo‘shini bilan Eronning g‘arbiy hududlariga bostirib kirib, zaiflashib qolgan Alamut qal’asini zabt etadi. Keyinchalik, 1273-yilda Misr sultoni Beybars I Suriyaning tog‘li hududlarida Hashshoshiylarning so‘nggi boshpanasini vayron qildi. Shu tariqa qarib bir asr davomida Sharq-u G‘arbni birdek dahshatga solgan Qo‘rquv va makr saltanati, tarixdagi ilk terror tuzilmasi bo‘lgan Hashshoshiylar (Assasinlar) tashkiloti yo‘q qilindi.

Aziz ABDUMALIK
tayyorladi



28-IYUN

– NUKTADON ADIB
AHMAD A’ZAM
TAVALLUDIGA 77 YIL TO‘LDI!



Adib deydiki...

***

Millatimizning buyuk o‘tmishi va buyuk kelajagi haqida ko‘p gapiramiz, millatning o‘zini buyuk qiladigan omil esa tafakkur; tilini buyuk qila olmaydigan millat o‘zini ham buyuk qilolmaydi. Shu yo‘l yuki hammamizning zimmamizda.

***

Yuksak minbarlardan ham aytilyapti, matbuotning o‘zida gapirilyapti, bong urayotganlar chiqyapti, ammo o‘z – o‘zbek tilimizning buguni va ertasi borasidagi bu tashvish-u da’vatlar o‘zimizning loqaydligimiz botqog‘iga cho‘kib ketayotir. Dod deb yuborging keladi – qog‘ozga dodlaysan odam! Qog‘ozning esa faqat qulog‘i bor, og‘zi yo‘q – sado bermaydi! Axir, hamdardga dodlaysan-da, odam!

Tilda atay buzg‘unchilik bilan davlat qonunini buzib, kinolar-u qo‘shiqlarni yasab tashlayotgan, hammayoqni chet atamalar-u chalasavod yorliq, reklama matnlariga to‘ldirayotgan, allambalo alfozda jild-jild bosmalarni “badiiy asar” deb chiqarayotgan, efirda qanaqadir yaroqsiz “o‘zbekcha” vag‘illab turganlar shu loqaydlik botqog‘imizda gurkirab o‘sayotgan alaflardir va ularni insofga chaqirish, tarbiyali bo‘lishga undash, til – bu tafakkurimiz zamini, milliy boyligimiz – o‘zligimiz, uni buzish emas, qo‘riqlash, asrash, tozalab turish lozimligini uqtirish ham befoyda. Xuddi men yozayotgan shu gaplarni ham devorga gapirayotganim kabi.

***

Millat ruhining ifodasi bo‘lmish adabiy tilni buzmay, bo‘laklamay rivojlantirish kerak. Zero u davlatchiligimiz asosi hamdir. To‘qson ikki bovli o‘zbekni birlashtirgan! Endi bu o‘zbekning har elati maktabdan boshlab o‘z shevasida gapirib, o‘qib-yozadigan bo‘lsa, keyin adabiy tilni har yoqqa tortqilasa, tasavvur qilasiz-ku qayoqqa o‘tib ketishimizni! O‘zi-ku sho‘ro yaxlit yashab kelayotgan turkiy millatni sen alohida, sen alohida, mana, senga bitta respublika, kamrog‘ingga, mana, muxtoriyat deb uluslarga bo‘lib, oraga qutqu urug‘ini qadab qo‘ygan edi. Turkiston turkiylari har biri alohida millat bo‘lib oldi, mayli, bu millatlarga ham barakasini bersin, lekin yagona turkiy til bo‘laklandi, har bo‘lagi o‘zicha ihotalanib oldi. Bir-birini baloday tushungan ellar bugun qon-qardoshi tilini lug‘atsiz anglashi mushkul. Mayli, har biri o‘z davlatida unib-o‘ssin, taraqqiy topsin, lekin umumturkiy til birligini yo‘qotmasinlar. Bu til Turkistonday ulkan hududda umrguzaronlik qilayotgan millatlar tafakkuri rivojining garovidir. Bu til birligiga rahna solish bugungi kunda har bir turkiy millatning o‘zini ichdan parchalashga ham olib keladi. O‘tmish tarixlarda bu necha bor qaytarilgan, yalakatmag‘iz katta uluslar parchalagan.

* * *

Andiz o'sgan yerlarda otlar bevaqt o'lmagay,
Yaxshi bo'lsa ayollar erlar yuzi so'lmagay.

Qaysi yurtda chinakam botir bo'lsa yigitlar,
O'shal yurtning ellari yovlarga qul bo'lmagay.

Azim SUYUN



Sodiq RAHMONOVning 2006-yilda ishlangan "Daladan qaytish" kartinasi